

Chet tillarni o'qitish borasida adolat va tenglik bo'lishi kerak emasmi?!

Fransuz, nemis va ispan tili o'qituvchilari nomidan Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat

2-bet

Xalq ta'limini saqlab qoling!

Nega davlatning millionlab pulini sarflab o'quvchilarga attestat berildi, baribir undagi baholarning hech kimga qizig'i yo'q-ku, buning o'rnida shunchaki maktabni tugatdi deb maktabdan ma'lumotnoma berib qo'ya qolsa bo'lmaydimi? Xalq ta'limi va oliy ta'lim o'rtasida bog'liqlik, uzviylik yo'q.

3-bet

“Ona tili darslari qisqarishi to'g'ri yechim emas bu savodsizlikning yanada oshishiga olib keladi”

5-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 15-iyul, chorshanba № 24 (9297)

Xalq ziyolilari gazetasi

Haqqingizni talab qiling, muallim!

Mahalliy budjet hisobidan “Ma'rifat”, “Xalq so'zi”, “Xalq ta'limi”, “Xalq ta'limi axborotnomasi” nashrlariga obuna qilingani aytilgan maktabga umuman boshqa nashrlar yetkazilmoqda



Mahalliy budjet hisobidan bir necha gazeta-jurnallarga obuna qildirilgani aytilgan-u, ammo ularning o'rniga boshqa nashrlarni olayotgan maktabning jonkuyar o'qituvchisining murojaati berilmoqda. Bu murojaat shu soha, shu tizim mutasaddilarining e'tiboridan chetda qolmaydi deb ishongimiz keladi.

2-bet



Ushbu sonda ona tili va adabiyot, biologiya, fransuz va nemis tillari fanlaridan test namunalari nashr qilinmoqda!

Obuna bo'lishni unutmang!



Shu paytgacha tayanch o'quv rejada eng ko'p ona tili va adabiyot faniga soat ajratilar edi. Lekin shu yillar davomida o'quvchilarda savod masalasi qay darajada o'sdi deb o'ylaysiz? Javobni uzoqdan qidirish shart emas. Atrofga qarasa, yoshlarimizning til masalasiga qanchalik “e'tiborli” ekanini ko'ramiz. Ko'chalardagi reklama va plakatlardagi xatolar yoki oddiy ijtimoiy tarmoqlardagi g'ij-g'ij xatolarga to'lib ketgan yozishmalar, adabiy til me'yorlariga umuman amal qilmay so'zlashayotgan yoshlar. Mana sizga jonli misollar. Endi ona tili fanining qisqarishi haqida o'ylasam, gapirishga so'z topa olmayapman...

Hayotxon IMOMNAZROVA

O'rtacha ikki yarim million so'm maosh olar edim (ustama bilan). Endi ustamam ham yo'q. Ikki million, darslar qisqardi bir yarim million (adashmayotgan bo'lsam, bundan ham kamayishi mumkin). O'quvchilarimiz ko'proq kasb-hunar egallashga qiziqadi. Oliy ta'limga boradiganlar sanoqli. Endi ellik foizga qisqarsa, qancha qolarkan maoshimiz?

Saidaxon MAMAJONOVA

Beshariq tumanida 20 soat dars berayotgan tilchilar juda oz. Endi bir stavka dars biz uchun armon bo'lsa kerak. Chunki oldingi dars setkasi bo'yicha ham tilchilar eng kam dars o'tadigan o'qituvchilar sirasiga kirardi. Bizda eng ko'p dars bor tilchida 18 soat, eng kamida esa 2 soat. Ayrim erkak o'qituvchilar 7 soat uchun erta-yu kech ishda bo'lishga majbur. Endi yangi taqsimot bo'yicha tilchilarning ahvolini bir o'ylab ko'ring. Bu vaziyatda nima qilishimiz mumkin? Nega doim biror yangilik joriy qilishda hamma tomonlama o'ylab ko'rilmaydi. Mayli, biz bir amallab kunimizni ko'rmayiz, lekin yosh avlod-chi?

Xosiyat HAMROYEVA

Haqqingizni talab qiling, muallim!

Mahalliy budget hisobidan "Ma'rifat", "Xalq so'zi", "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi" nashrlariga obuna qilingani aytilgan maktabga umuman boshqa nashrlar yetkazilmoqda

Tahririyatimizga obuna masalasida ko'plab murojaatlar bo'ladi. Aksariyatining mazmuni shunday: "Ma'rifat"ga obuna bo'lgandik, lekin gazeta kelmayapti", "Bizdan ta'lim nashrlariga obuna uchun pul yig'ildigani, biroq hech qanday ta'lim nashri yetkazilmayapti"... (Shu o'rinda qayd etish joizki, Xalq ta'limi vazirligining 2019-yil 23-oktabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar XTBB va viloyatlar XTBlariga jo'natgan xatida vazirlik muassisligidagi nashrlarga har bir ta'lim muassasini Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi 33-qarori 5-bandi asosida hamda budjetdan tashqari topilgan mablag' hisobidan kamida 2 tadan yillik obuna qilish tavsiya etilgan). **Gazeta-jurnallar vaqtida yoki umuman yetkazilmayotganida hatto tahririyatlarni aybdor sanayotganlar ham bor. Obuna madaniyati — boshqa mavzu. Biroq obuna bo'lgan nashrini ololmayotganlarning hafsalasi pir bo'lib, o'sha nashrga ishonchi yo'qolayotgani ayni haqiqat. Shuningdek, mahalliy budget hisobidan ta'lim nashrlari obunasi uchun ajratilishi zarur bo'lgan mablag'lar ham soha xodimlariga umuman aloqasi bo'lmagan boshqa nashrlar obunasiga yo'natirilmoqda.**

Shu o'rinda ustoz-murabbiylarga ikki og'iz so'z. Aziz mushariylar! O'z haq-huquqingizni talab qiling. Ta'lim nashriga obuna bo'ldingizmi, o'sha nashrning muntazam yetkazilishini so'rang, surishtiring, talab qiling!

Quyida mahalliy budget hisobidan bir necha gazeta-jurnallarga obuna qildirilgani aytilgan-u, ammo ularning o'rniga boshqa nashrlarni olayotgan maktabning jonkuyar o'qituvchilaridan birining murojaati berilmoqda. Bu murojaat shu soha, shu tizim mutasaddilarining e'tiboridan chetda qolmaydi deb ishongimiz keladi.

Avvalo bundan oldin ushbu masalada boshqa idoralarga qilgan murojaatlarim amaliy hal etilmayotganiga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ushbu murojaatim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi 33-qarori 5-bandiga asosan mahalliy budget hisobidan men ishlab kelayotgan 10-maktabning bir necha gazeta-jurnallarga obuna qildirilgani, ammo ushbu gazeta, jumallari berilmay kelayotgani va bu haqda qilingan murojaatlarning natijasiz qolayotgani xususidadir.

Bundan bir qancha vaqt oldin yuqori tashkilotlarga Vazirlar Mahkamasiga qaroriga asosan gazeta va jumallarga obuna qildirishga yordam so'rab murojaat

etgandim. Shundan keyin Qamashi tuman hokimligidan va Qashqadaryo viloyati xalq ta'limi boshqarmasidan maktabimiz "Ma'rifat" gazetasi, "Xalq ta'limi axborotnomasi", "Xalq ta'limi" va "Xalq so'zi" nashrlariga obuna qildirilgani ma'lum etildi.

Oradan bir qancha muddat o'tgach, maktabimizga Qamashi tumanlararo pochta aloqa tarmog'i tomonidan "Yangi O'zbekiston", "Ishonch" gazetalar berila boshlandi. Ammo "Xalq so'zi", "Ma'rifat" gazetalar va boshqa ta'lim nashrlari berilmay kelindi. ("Xalq so'zi" gazetasi va "Xalq ta'limi" jurnali tuman XTB tomonidan onda-sonda berilyapti). Buning sababini bilish uchun Qamashi tumanlararo pochta aloqa tarmog'i boshlig'i T.Dav-



Qoramaktabimizga Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Tashkent shahar XTBB va viloyatlar XTBlariga jo'natgan xatida vazirlik muassisligidagi nashrlarga har bir ta'lim muassasini Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi 33-qarori 5-bandi asosida hamda budjetdan tashqari topilgan mablag' hisobidan kamida 2 tadan yillik obuna qilish tavsiya etilgan.

Shu masalada, Xalq ta'limi vazirligi a'loqasizlikni "Ma'rifat", "Yangi O'zbekiston" gazetalar, "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi", "Xalq ta'limi" va "Xalq so'zi" nashrlariga obuna qildirilgani ma'lum etildi. Biroq obuna bo'lgan nashrini ololmayotganlarning hafsalasi pir bo'lib, o'sha nashrga ishonchi yo'qolayotgani ayni haqiqat. Shuningdek, mahalliy budget hisobidan ta'lim nashrlari obunasi uchun ajratilishi zarur bo'lgan mablag'lar ham soha xodimlariga umuman aloqasi bo'lmagan boshqa nashrlar obunasiga yo'natirilmoqda.

Shu o'rinda ustoz-murabbiylarga ikki og'iz so'z. Aziz mushariylar! O'z haq-huquqingizni talab qiling. Ta'lim nashriga obuna bo'ldingizmi, o'sha nashrning muntazam yetkazilishini so'rang, surishtiring, talab qiling!

Quyida mahalliy budget hisobidan bir necha gazeta-jurnallarga obuna qildirilgani aytilgan-u, ammo ularning o'rniga boshqa nashrlarni olayotgan maktabning jonkuyar o'qituvchilaridan birining murojaati berilmoqda. Bu murojaat shu soha, shu tizim mutasaddilarining e'tiboridan chetda qolmaydi deb ishongimiz keladi.

ronovga qo'ng'iroq qildim. T.Davronov maktabimizga obuna qildirilgan nashrlarni yetkazib berishayotganini, ammo "Ma'rifat", "Xalq so'zi", "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi" nashrlari pochta yetkazib berishi kerak bo'lgan ro'yxatda yo'qligini ma'lum qildi.

Men maktabimizga obuna qildirilgan nashrlar berilmayotganini yuzasidan yuqori tashkilotlarga murojaatimni takrorladim. Murojaatlarim yuzasidan nega maktabimiz obuna qildirilgani ko'rsatilgan nashrlar berilmay kelayotgani aniqlanib, masala hal qilinmay turib, faqat qog'ozbozlik bilan bir xil javob berib kelinayapti. Shu o'rinda ana shu javoblardan biri bo'lgan Qamashi tuman hokimining birinchi o'rinbosari R.G'afurov imzosi bilan kelgan javob xati nusxasini ilova qilayapman.

Ko'rinib turibdiki, yuqori tashkilot-



Qoramaktabimizga Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Tashkent shahar XTBB va viloyatlar XTBlariga jo'natgan xatida vazirlik muassisligidagi nashrlarga har bir ta'lim muassasini Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi 33-qarori 5-bandi asosida hamda budjetdan tashqari topilgan mablag' hisobidan kamida 2 tadan yillik obuna qilish tavsiya etilgan.

Shu masalada, Xalq ta'limi vazirligi a'loqasizlikni "Ma'rifat", "Yangi O'zbekiston" gazetalar, "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi", "Xalq ta'limi" va "Xalq so'zi" nashrlariga obuna qildirilgani ma'lum etildi. Biroq obuna bo'lgan nashrini ololmayotganlarning hafsalasi pir bo'lib, o'sha nashrga ishonchi yo'qolayotgani ayni haqiqat. Shuningdek, mahalliy budget hisobidan ta'lim nashrlari obunasi uchun ajratilishi zarur bo'lgan mablag'lar ham soha xodimlariga umuman aloqasi bo'lmagan boshqa nashrlar obunasiga yo'natirilmoqda.

Shu o'rinda ustoz-murabbiylarga ikki og'iz so'z. Aziz mushariylar! O'z haq-huquqingizni talab qiling. Ta'lim nashriga obuna bo'ldingizmi, o'sha nashrning muntazam yetkazilishini so'rang, surishtiring, talab qiling!

Quyida mahalliy budget hisobidan bir necha gazeta-jurnallarga obuna qildirilgani aytilgan-u, ammo ularning o'rniga boshqa nashrlarni olayotgan maktabning jonkuyar o'qituvchilaridan birining murojaati berilmoqda. Bu murojaat shu soha, shu tizim mutasaddilarining e'tiboridan chetda qolmaydi deb ishongimiz keladi.

ronovga qo'ng'iroq qildim. T.Davronov maktabimizga obuna qildirilgan nashrlarni yetkazib berishayotganini, ammo "Ma'rifat", "Xalq so'zi", "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi" nashrlari pochta yetkazib berishi kerak bo'lgan ro'yxatda yo'qligini ma'lum qildi.

Men maktabimizga obuna qildirilgan nashrlar berilmayotganini yuzasidan yuqori tashkilotlarga murojaatimni takrorladim. Murojaatlarim yuzasidan nega maktabimiz obuna qildirilgani ko'rsatilgan nashrlar berilmay kelayotgani aniqlanib, masala hal qilinmay turib, faqat qog'ozbozlik bilan bir xil javob berib kelinayapti. Shu o'rinda ana shu javoblardan biri bo'lgan Qamashi tuman hokimining birinchi o'rinbosari R.G'afurov imzosi bilan kelgan javob xati nusxasini ilova qilayapman.

Ko'rinib turibdiki, yuqori tashkilot-

larga qilingan murojaatlardan keyin ham masala ijobiy hal bo'lmayapti. Hozirga qadar yuqorida nomlari qayd etilgan nashrlar berilmay kelinmoqda. Qog'ozda boshqa, amalda boshqa ish bo'layapti. Bu holat qachongacha davom etadi? Nima uchun maktabimiz obuna qildirilgani ko'rsatilgan "Ma'rifat", "Xalq so'zi", "Xalq ta'limi", "Xalq ta'limi axborotnomasi", shuningdek, "Boshlang'ich ta'lim", "Til va adabiyot ta'limi" kabi nashrlar maktabimizga kelmayapti? Men ana shu savollarga aniq-tiniq javob topilib, maktabimiz obuna qildirilsa-da, hanuzga qadar berilmay kelayotgan yuqorida nomlari qayd etilgan gazeta, jumallarni topib, maktabimizga yetkazib berilishida amaliy yordam so'rayman.

Rahmatilla MENGIROV, Qamashi tumanidagi 10-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

Chet tillarni o'qitish borasida adolat va tenglik bo'lishi kerak emasmi?!

Fransuz, nemis va ispan tili o'qituvchilari nomidan Xalq ta'limi vaziriga ochiq xat

Hurmatli Sherzod Shermatov! So'zim avvalida o'zim haqimda ikki og'iz so'z aytсам. Bolaligimdan ta'lim olishga qiziqardim. Oilamiz ko'p farzandli edi. Ota-onamiz ham ziyoli insonlar bo'lgani tufayli tahsil olishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Katta akam O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti fransuz filologiyasi yo'nalishiga davlat granti asosida o'qishga kirganida, men endigina 2-sinfni tugatgan edim. Yosh bo'lsam ham, akamga havas qilib "Men ham albatta o'sha dargohda o'qiyman" deb niyat qilgandim.

Maktabni tugatgach, o'sha ta'lim muassasiga hujjat topshirdim. Ammo imtihonda yetarli ball to'play olmadim. Biroq bu meni maqsadimdan qaytara olmadi. Yanada kuchliroq o'qishda davom etdim. Keyingi yili yana fransuz filologiyasi yo'nalishiga hujjat topshirib, imtihondan yuqori ball oldim. Davlat granti asosida qabul qilinganlar ro'yxatining eng boshida ism-familiyamni ko'rib ko'zlarimga ishonmaganim rost. Katta umidlar va yangi orzular bilan tahsil olishni boshladim.

Ammo 2-kursda o'qiyotganimizda ayni chet tillarni o'qitish borasida g'alati qarorlar qabul qilindi. Respublikamizda fransuz, nemis, ispan va boshqa tillar birdaniga chekkaga surilib, keraksiz tillardek qarala boshlandi. "Dunyodagi ko'pchilik aholi shu tilda so'zlashadi, ildam yutuqlari ham shu tilda", deya bor e'tibor ingliz tiliga

qaratildi. Jahon tillari universitetida oldindan 2 ta ingliz filologiyasi fakulteti bor edi. Nemis, fransuz, ispan tillari qisqartirilishi hisobiga 3-ingliz filologiyasi fakulteti tashkil etildi.

Janob vazir! Ingliz tiliga e'tibor berilishi yaxshi, ammo bu boshqa tillarga e'tiborning qisqartirilishi hisobiga bo'lishi kerak emas-ku! Fransuz, nemis, ispan tillarida Yevropa, Amerika va Afrika qit'alarida milliardga yaqin aholi so'zlashadi. O'zbekistonga keluvchi chet ellik sayyohlar orasida ham shu tillarda so'zlashuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu yurtimizda ushbu tillarni biladigan mutaxassislarga talab borligiga isbot. Lekin shunga qaramay, shu tillar borasida mantiqsiz qarorlar qabul qilindi va amalda joriy etildi. Fransuz, nemis, ispan tillari fakultetlari yopilgach, o'qituvchilar ishsiz qoldi, talabalar bir sinfga sig'adigan sanoqqa keldi. Vaholanki, respublikamizning barcha viloyatlaridagi maktablarda bu tillarni 400-500 mingdan ortiq o'quvchi o'rganadi.

Ingliz tilini o'qitishga e'tibor haddan oshgach fransuz, nemis, ispan hamda boshqa tillar yo'nalishlarini bitirib, diplom olgan talabalariga ish topilmay qoldi. Natijada ingliz tili bo'yicha qayta tayyorlov kurslari tashkil qilindi. **Bir necha oylik kurslarning sertifikatini fransuz, nemis, ispan tillari bo'yicha universitet diplomidan baland turadigan bo'lib qoldi.** Men ham o'qishni tuga-

tishim bilan ingliz tili bo'yicha qayta tayyorlov kurslarida o'qishga majbur bo'ldim. Chunki ish shartnomasi tuzish uchun maktablarga borganimda, fransuz tili o'qituvchilari yetarli ekanini, ingliz tili o'qituvchilari kerakligini aytishdi.

Sherzod Hotamovich! Pandemiya sabab butun respublikada ta'lim teledarslar asosida tashkil etildi. Ammo fransuz va nemis tillari yana bunday imkoniyatdan bebahra qolishdi. Maktabimizda barcha darslar teledarslar orqali o'tilgan bo'lsa, faqat men yomon sifatlil internet yordamida onlayn dars o'tdim. Mehnatdan qochmayman, ammo barcha fanlar va chet tillar borasida adolat va tenglik bo'lishi kerak emasmi?!

Fransuz tiliga bunday e'tiborsizlikdan keyin ota-onalar ham "Ingliz tili yaxshi ekan" degan xulosaga kelgan bo'lsalar ne ajab?!

Afsuski, koronavirus muammosi hali hal bo'lgani yo'q. Shu sabab sentabrda darslar yana teledarslar orqali o'tilishi ehtimoli bor. Mabodo shunday bo'lgan taqdirda, biz — fransuz, nemis, ispan va boshqa chet tillari o'qituvchilari yana e'tibordan chetda qolamizmi?

Til — boylik. Yurtimizda qancha ko'p tillarni biladigan mutaxassislar ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Shuning uchun chet tillar siyosati borasida yakka til hukmronligiga chek qo'yish kerak. Shunda dunyo davlatlarining eshiklari bizga yanada kengroq ochiladi.

Qunduz RO'ZMETOVA, Qo'shko'pir tumanidagi 36-maktabning fransuz tili fani o'qituvchisi

Xalq ta'limini saqlab qoling!

Davlat paydo bo'libdiki, turli kuchlarga tayanib xalqni boshqargan va yashagan. Davlatchilik tarixining qadimgi o'choqlaridan biri Mesopotamiyada davlatga tayanch vazifasini ruhoniylar va harbiylar o'tagan va bu uzoq davrlar davom etgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib vaziyat o'zgarar boshladi.

1917-yili Rossiyada bolsheviklar inqilob bilan hokimiyatni egallagach, yana bir sohada inqilob qilishdi. Bu ta'lim sohasi edi. Butun ittifoq bo'ylab 8 yillik, 10 yillik va keyinchalik 11 yillik ta'lim joriy etildi. Bu davrda ta'limga e'tibor shu darajaga yetdiki, 1923-yilga kelib TASSR maktablariga oltin hisobida 1 million so'm, 1924-yili esa 2 million so'm pul ajratildi. Naqadar olijanoblik deging keladi.

Buni qarangi, yangi sovet maktablari bu davrda muallimlarga muhtoj bo'lsa-da, eski maktablar va jadid maktablari muallimlaridan foydalanilmadi, aksincha, ularga "dushman" sifatida qaraldi. Natijada ular sovet ma'murlari tomonidan birin-ketin berkitildi va 20-yillar oxiriga kelib bu maktablar o'z faoliyatini butunlay to'xtatishga majbur bo'ldi.

O'z davrining fidoiy pedagoglariga hurmatni saqlagan holda shunday xulosaga kelish mumkin, sovet davlati uchun bu bosqichda ta'lim sifatini oshirish, xalqqa ma'rifat ulashishdan ko'ra, partiyaning sodiq jangchilarini tayyorlash muhimroq bo'lgan. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta'sirchan o'chog'i bo'lgan xalq ta'limini birinchi kundanoq mafkura izmiga solish uchun butun imkoniyatlarini ishga solishgan. Sovet o'qituvchisining aholi orasidagi ta'siri, qadimgi dunyo va o'rta asrlardagi ruhoniylardan kam bo'lmagan va ular o'z davlati uchun qizil armiyadan ko'ra samaraliroq faoliyat ko'rsatishgan.

Nega sobiq ittifoqda ta'lim aynan 11 yillik qilib belgilandi? Nega 13 yoki kamroq, masalan 8 yillik, 7 yillik yoki 5 yillik emas? Pedagoglar avlodi sifatida va o'zining o'ziga tajribamdan kelib chiqib shuni aytay olamanki, 11 yil davomida olinadigan bilimni o'quvchiga 8 yoki 7 yil davomida ham singdirsa bo'ladi. Menimcha, buning eng asosiy sabablaridan biri bu, ayni shu davrda, ya'ni 18 yoshga to'lganida bola shaxs sifatida shakllanadi, o'z dunyoqarashiga ega bo'la boradi va shu 11 yil davomida shakllantirilgan dunyoqarashni ko'pincha 110 yilda ham o'zgartirib bo'lmaydi. Maktab davrida bola voyaga yetguniga qadar jamiyatdan norozi bo'lgan turli ijtimoiy unsurlarning salbiy ta'siridan himoyalangan bo'ladi va sadoqatli fuqaro sifatida tarbiyalana boradi.

2017-yilga qadar davlatning asosiy tayanchi bo'lishi mumkin bo'lgan o'qituvchilarning qadrsizlanishiga guvoh bo'ldik. Xalq xo'jaligining turli sohalarda, u paxta terimi yoki hashar bo'lsin, o'qituvchidan mardikor sifatida keng foydalanildi. Qisqa qilib aytganda, o'qituvchi aslida yuksak bo'lishi lozim, shart bo'lgan ijtimoiy mavqeyini qo'ldan boy berdi. Ijtimoiy tarmoqlar

orqali, hatto televideniye orqali mahmudona o'quvchilar o'z ustozlarining yuziga loy chaplashga urinishdi.

Keyingi yillarda Prezidentizning talab va takliflari hamda ko'rsatmalari asosida jamiyatda o'qituvchiga bo'lgan e'tibor kuchaydi va bu jarayon davom etmoqda.

Shu yurtning vatanparvar bir fuqarosi hamda oddiy bir o'qituvchi sifatida, o'qituvchining mavqeyini oshirish, o'qituvchi kasbini jamiyatda eng nufuzli kasblardan biriga aylantirish va oxir oqibatda ta'lim sifatini oshirish uchun nafaqat xalq ta'limida, balki oliy ta'limda ham tub islohotlarni amalga oshirish zarur deb hisoblayman va quyida o'z zimning taklif va mulohazalarimni keltirmoqchiman.

Har bir inson borki farzandining yaxshi yashashi, hayotda o'z yo'lini topib ketishini xohlaydi. Yaxshi umrguzaronlik qilishning muhim shartlaridan biri bu yaxshi ta'lim olish, savod chiqarish deb hisoblagan ota-bobolarimiz farzandini maktabga olib kelar ekan, o'qituvchisiga "eti sizga, suyagi bizga" deyishgan, ehtimolki "Ustoz otangdan ulug'" deyilgan maqol ham ayni shu davrda paydo bo'lgandir. Bugungi kunga kelib esa ota-onalar tomonidan o'qituvchiga nisbatan eng ko'p ishlatiladigan gap "bolamga qo'lingni tekizishga haqqing yo'q" bo'lsa kerak.

Bugungi kunning ko'pchilik mehribon ota-onalari farzandi kelgusida farovon yashashining yagona sharti sifatida oliy ma'lumot olishini tushunadi va bor imkoniyatini shunga safarbar qiladi, repetitorlik kurslariga beradi, kerak bo'lsa bu yo'lda turli g'irromliklardan foydalanishdan ham tap tortmaydi. Hamma imkoniyat kirish testlaridan muvaffaqiyatli o'tib talaba bo'lishga yo'naltirilgan, hatto talabalar orasida hazil tariqasida "testdan o'tdingmi bo'ldi, institut sendan bitta diplom qarzdor, har qachon bo'lsa ham olasan" degan gaplar yuradi.

Oliy ta'lim olishni xohlovchi o'quvchi kirish testi olinadigan 3 ta fanga tayyorlanadi, shu fanlarni chuqur o'qib o'zlashtirishga bor kuch-g'ayratini sarflaydi va tabiiy ravishda qolgan fanlarni o'zlashtirishga unda imkoniyat bo'lmaydi. Ko'rib turibsizki, qolgan fanlar uning uchun "keraksiz", vaqtni bekorga sarflaydigan mashg'ulotga, xuddi shuningdek, "keraksiz" fan o'qituvchilari ham ikkinchi darajali shaxslarga aylanadi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan hududlarning ko'pchiligida bitiruvchi sinf o'quvchilarini darsda "ushlab turish" muammosi borligi ham bugungi kunda sir bo'lmasa kerak. O'quvchi oliy maqsadi "institutga kirish" uchun repetitorlik kurslariga borish shart deb hisob-

laydi, agarda "keraksiz" fan o'qituvchisi darsni talab qiladigan bo'lsa, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida nizo kelib chiqadi, chunki u o'quvchi ongida "oliy maqsad"ga erishish yo'lida to'sqinlik qilayotgan kimsaga aylanadi va tabiiy ravishda obro'sizlanadi. Oqibatda esa bir tomonlama rivojlangan "majruh" o'quvchilar yetishib chiqadi.

Bir necha yillardan buyon Buxoro viloyatining Shofirkon tumani maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qabul qilinishi bo'yicha Respublikamizda birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Bu ehtimol hududda istiqomat qiladigan aholining intellektual salohiyati yuqori ekanligidan dalolatdir. Lekin tangaming yana bir tomoni borki, tuman bitiruvchilarining aksariyatining bilimi o'zlari tanlagan yo'nalishlardan boshqalari bo'yicha qoniqarli darajada deb bo'lmaydi. Masalan, aniq fanlarga yo'nalgan o'quvchilarning ijtimoiy yo'nalish va filologiya yo'nalishi, aynan rus tilidan, ijtimoiy yo'nalishga e'tibor qaratgan o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan bilim darajalari past, hatto ayanchli darajada.

11 yil maktabda ta'lim olib, yakuniy davlat imtihonlarini topshirgan va "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi attestat"ni qo'lga kiritgan o'quvchining 11 yillik umrini sarflab olgan baholarining, ya'ni attestatning hech kimga qizigi yo'q. Tabiiy ravishda savol tug'iladi: nega qanchadan, qancha vaqt va asab sarflab bitiruv imtihonlari olindi? Baribir OO'Yga kirish imtihonlari payti bu baholar inobatga olinmaydi-ku! Yoki nega davlatning millionlab pulini sarflab o'quvchilarga attestatlar berildi, baribir undagi baholarning hech kimga qizigi yo'q-ku, buning o'rnida shunchaki maktabni tugatdi deb maktabdan ma'lumotnoma berib qo'ya qolsa bo'lmaydimi? Xalq ta'limi va oliy ta'lim o'rta-sida bog'liqlik, uzviylik yo'q.

Masalaning yana bir ayanchli tomoni shundaki, bu holat 25 yil davomida sekin-asta qadrini yo'qota borgan o'qituvchilar va umuman xalq ta'limining yanada obro'sizlanishiga olib keldi. Oxir-oqibat insoniyatning eng muhim yutuqlaridan biri bo'lgan bepul ta'limning "o'lishiga" sabab bo'ladi. Chunki o'ziga to'q ota-onalar farzandining maktabda o'tiladigan 23 ta fanga vaqtini sarflamay, maxsus o'qituvchilarni yollab sanoqli fanlarni o'qitishni xohlaydi. Iqtisodiy jihatdan imkoniyati cheklangan va jamiyatdan norozi bo'lgan oila farzandlari esa repetitorlik kurslariga borib, darslarda ishtirok eta olmayotgan sinfdoshiga taqlid qilib maktabga kelmay qo'yadi. Xo'sh, bundan davlat qanday

zarar ko'radi? Shuni unutmaylikki, xalq ta'limi nafaqat ta'lim, shu bilan birga tarbiya ham beradi, ona vatan, davlat, millat, milliy g'urur, sadoqat kabi tushunchalar aynan maktabda o'quvchi ongiga singdiriladi va sadoqatli fuqarolar tarbiyalanadi.

Bunday vaziyatda o'qituvchining mavqeyini ko'tarishning iloji bormi? Bor, buning uchun inqilob qilish shart emas. Buning uchun oliy ta'limga qabul qilish tizimini o'zgartirish kerak. Avvalo institutga kirish emas, balki uni tugatishda talabni kuchaytirish lozim. Xohlagan kishi institutga kirish "baxti"ga musharraf bo'lsin, faqat bilimi borlariga diplom olsin.

Joriy yilda maktabni tugatgan o'quvchilarning attestatlariga 23 ta fandan baho qo'yildi. Agar biz farzandimizni imtihonga emas, hayotga tayyorlashni istasak bolamizning mana shu 23 ta fandan ham chuqur o'zlashtirishini nazorat qilishimiz kerak bo'ladi. Xuddi shuningdek, nega endi institutga kirish uchun tor yo'nalishda tayyorlanish kerak? Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasasiga kirish uchun abituriyent 3 ta fandan, 1-blokda har bir to'g'ri belgilangan javob uchun 3.1, jami 93 ball, 2-blokda har bir to'g'ri belgilangan javob uchun 2.1, jami 63 ball va 3-blokda har bir to'g'ri belgilangan javob uchun 1.1, jami 33 ball, umumiy hisobda 189 ball olishi mumkin (bu yil pandemiya sharoitida 2 ta fandan bo'lyapti istisno tariqasida).

Buning o'rniga dastlabki bosqichda o'quvchining attestatidagi baholarning umumiy yig'indisiga qarab qabul qilishni yo'lga qo'yish kerak. Masalan, agar 23 ta fandan barchasi "5" bo'lsa umumiy 115 ball yoki 110 ball va hokazo 69 balgacha. 115 baldan 110 balga qadar baholanganlar davlat budjeti hisobidan, qolganlari shartnoma asosida o'qishga qabul qilinasa, bundan tashqari har semestr yakunida olgan baholariga ko'ra budjet va shartnoma asosida ta'lim oluvchi talabalar soni o'zgartirib borilsa, yaxshi natijaga erishish mumkin, menimcha.

Keyingi bosqichlarda esa hech qanday kirish imtihonlarisiz, o'quvchining arizasiga ko'ra OO'Yga qabul qilinishini yo'lga qo'yib, salohiyatli talabalargina diplom olib hayotga yo'llanma oladi. Shundagina o'quvchi institutga kirib olmasa bo'lgani, qolganlari bir gap bo'lar qabilida ish tutmaydi, oliy ta'lim olishning mashaqqatini his etadi.

Xo'sh, bundan maktab o'qituvchisiga qanday manfaat bor? Manfaat shuki, jamiyatda o'qituvchiga nisbatan munosabat o'zgaradi. Ota-ona va o'quvchi tasavvurida o'qituvchi porloq kelajakka erishishga sababchi bo'ladigan zotga aylanadi va ajab emaski, "Ustoz otangdan ulug'" deyilgan, bugungi kunga kelib esa iste'moldan tushib qolgan maqollar yana ishlatila boshlansa.

Bir haqiqat bor — davlat fuqaroning sadoqati bilan qudratli bo'ladi. Sadoqatli fuqarolarni tarbiyalash, qudratli davlatni shakllantirishning asosiy sababchilari bo'lgan o'qituvchilarning sog'-omon bo'lishini.

Elyor QAYIMOV,
Shofirkon tumanidagi
3-IDUM tarix fani o'qituvchisi

Tajriba

“Evristik suhbat” usuli

Yozgi taʼtilda oʻquvchilar bilan onlayn muloqot va toʻgʻaraklar tashkil etishga kirishdik. Geometriya fanidan 7-sinflarda “Parallel toʻgʻri chiziqlar” mavzusini oʻtishda toʻgʻri chiziqlar, parallel toʻgʻri chiziqlar oʻzi nima, degan savolga javob izlashda “Aqliy hujum”, “Evristik suhbat” usulidan foydalanishga odatlanganman.

Ushbu usul oʻquvchilarni tasavvuridagi koʻnikmalardan ijodiy foydalanishga undaydi va berilgan har qanday muammoga yechim topishda yordam beradi. Bunda oʻylash jarayonida baholashlarga yoʻl qoʻyilmaydi va har bir fikr, gʻoya ragʻbatlantiriladi. Oʻquvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilamiz:

Oʻqituvchi: — Bolalar (chizgʻichni koʻrsatadi), chizgʻichning qirralariga eʼtibor bering. Chizgʻichning shu qirralari (qoʻli bilan qirralarini koʻrsatadi) oʻng tomonga ham, chap tomonga ham davom ettirilgan deb tasavvur qilaylik. Bu qirralar bizga qanday geometrik shaklni eslatadi?

Oʻquvchi: — Toʻgʻri chiziqni eslatadi.

Oʻqituvchi: — Toʻgʻri, aytinglar-chi, bu toʻgʻri chiziqlar qanday tekislikda yotadi?

Oʻquvchi: — Bu toʻgʻri chiziqlar bit-ta tekislikda yotadi.

Oʻqituvchi: — Juda toʻgʻri. Xoʻsh,

toʻgʻri chiziqlar soni nechta? Endi shu yozuvni soʻz bilan ifoda qilinglar-chi?”

Oʻquvchilar topshiriqni bajaradilar. Koʻpincha baʼzi oʻquvchilar “AB parallel CD” deb oʻqiydi. Shuni inobatga olib, “toʻgʻri chiziq” termini tushirib qoldirilganligini eslatadi. Baʼzan nutqimiz qisqa boʻlishi uchun “AB parallel CD” deb oʻqilishi mumkinligi tushuntiriladi. “Parallel” soʻzi grekcha “parallelos” soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbek tilida “yonma-yon boruvchi” degan maʼnoni bildiradi. Parallellikni // simvoli bilan belgilashni matematika faniga 1677-yilda ingliz olimi Outred, tenglikni = simvoli bilan belgilashni esa angliyalik Rekord 1557-yilda kiritgan.

(EF) || (KM)

Bu yozuv quyidagicha oʻqiladi. “EF toʻgʻri chiziq KM toʻgʻri chiziqqa parallel emas”.


Baʼzan nutqimiz qisqa boʻlishi uchun

“EF parallel emas KM” deb oʻqishimiz mumkin.

$$\left. \begin{aligned} a \in p \wedge b \in p \\ a = b \vee a \cap b = o \end{aligned} \right\} \Rightarrow a \parallel b$$

Parallel chiziqlar tushunchasi taʼrifining quyidagicha simvolik yozuvidan foydalanamiz:

Oʻqituvchi: — Agar ikkita AB va CD toʻgʻri chiziqlar uchinchi EF toʻgʻri chiziqqa perpendikulyar boʻlsa, unda bu perpendikulyarlar oʻzaro parallel boʻladi.




Isboti: AB ⊥ EF;
CDEF boʻlsin.

AV//CD boʻlishini koʻrsatamiz. AB va CD toʻgʻri chiziqlarni pagallel emas deb faraz qilaylik, bu holda ular davom ettirilganda, biror C nuqtada kesishadi. Unda C nuqtadan EF ga ikkita perpendikulyar tushgan boʻladi, bu mumkin emas. Demak:

AB//CD

Agar ikki toʻgʻri chiziqning har biri uchinchi toʻgʻri chiziqqa perpendikulyar boʻlsa, ular parallel boʻladi.

Toʻgʻri chiziqlarning parallellik alomati aytilgandan soʻng parallel toʻgʻri chiziqlar chizish asoslanadi. Goʻniya va chizgʻich yordamida parallel toʻgʻri chiziqlar chizish mumkin, bunda goʻniya chizgʻichga kateti bilan qoʻyiladi:



Goʻniyaning ikkinchi kateti orqali uning turli vaziyatlarida oʻtkazilgan toʻgʻri chiziqlar parallel boʻladi, chunki ular bitta (chizgʻich chetidan oʻtuvchi) uchinchi toʻgʻri chiziqqa perpendikulyardir, a va b toʻgʻri chiziqlar parallel, chunki ular bitta l toʻgʻri chiziqqa perpendikulyardir. Darsda parallel toʻgʻri chiziqlar yasash usulini reysshina yordamida asoslash foydali: a va b toʻgʻri chiziqlar bitta l toʻgʻri chiziqqa (chizmachilik doskasining qirrasiga) perpendikulyardir. Shundan soʻng kvadrat, toʻgʻri toʻrtburchakning qarama-qarshi tomonlari parallelligi isbotlanadi.

Shokirjon HAMDAMOV,
Namangan tumanidagi 14-maktabning oliy toifali matematika fani oʻqituvchisi

“Geografiya choʻqqisi”ning balandligi qancha?

Koʻpchilikdan “Geografiya — qiziqarli fan”, “Geografiyaga juda qiziqaman” degan fikrlarni eshitamiz. Ammo kamdan-kam insonlar ushbu sohani egallashining guvohi boʻlamiz. Baʼzi yoshlarning bu fanga qiziqmasligi, tushunmasligi haqida eshitib, sababini soʻraganimda, aksar geografiya oʻqituvchilarining qoʻlligi, dars mavzusini yaxshi tushuntirmasdan faqat oʻquvchilarga baland ovozda “tarbiyaviy soat” bilan vaqt oʻtkazishlarini aytgan.

Demak, yaqin-yaqingacha faqat geografiya oʻqituvchisi kasbini egallamoqchi boʻlganlarga ushbu fanni astoydil oʻqir edi. Ayniqsa, 9-10-sinfdan bu fanga umumun vaqt ajratmasdan, oʻzlariga tegishli fanni chuqur oʻrganishga kirishishgan. Hozirgi oʻsmirlar faqat OOʻYlarga kirish uchun kerakli fanlarni oʻrganishmoqda. Ota-onaning tasavvuri esa: “Farzandim falonchi oʻqituvchiga repetitora boryapti-ku, oʻqishga kiradi”. Afsuski, repetitora pul topib berayotgan ota-onalar, farzandlari “ilm-bilimlar bozori”dan nimalarni sotib olayotganini tekshirishga vaqt topmayapti. Yaʼni, farzandi oʻqiyotgan kitoblardan savol-javob oʻtkazib turadiganlari juda kam uchraydi. Repetitor darslarini togʻli tabiat landshaftiga qiyoslasak, unda oʻqitiladigan asosiy fanlar choʻqqilardir. Shunday ekan, bu repetitor togʻining geografiya choʻqqisi necha metr boʻlishi mumkin?

Besh oy avval “geografiya choʻqqisi” repetitor togʻi tizmasiga kirmas edi. Joriy yildan OOʻYlarining tarix fakultetlari-

ga oʻqishga kirish imtihonlariga geografiya fani ham qoʻshilgani baland choʻqqilarning toʻqqiztaligini oʻntalikka aylantirdi. Yaʼni, matematika, ona tili va adabiyot, ingliz tili, tarix, fizika, biologiya, kimyo, informatika, rus tili hamda geografiya. Xoʻsh, geografiya fanidan repetitora borish shartmikan? Bor-yoʻgʻi 6 ta darslikda 300 ta mavzuning nazariy bilimlarini 180 kunda bemalol tushunib yodlashga ulgursa boʻladi. Vaholanki, bir kunning ikki soatini uch-toʻrtta mavzu va atlas bilan shugʻullanishga ajratsa boʻladi. Tushunmagan, eslab qolishi qiyin boʻlgan maʼlumotlarni oʻqituvchidan soʻrab turish kifoya. Ushbu maslahatni eshitgan oʻsmirlar: “Geografiyaning masalasi borda, ularni yechishni mustaqil oʻrganish qiyin. Shuning uchun repetitorlik qiling” deb murojaat qilishmoqda. Abiturientlarning bu gaplari mutlaqoʻ masʼalalarning 90 foizi 5-sinf mavzulariga toʻgʻri keladi. Eng achainarlisi, ushbu masalalarni mukammal tushunib olish 5-sinf oʻquvchisining yoshiga



toʻgʻri kelmaydigan va ularga oʻtilmaydigan fizika faniga bogʻliq boʻlib, ustiga-ustak masalalar yechishga amaliy mashgʻulot darsi bir yilda bor-yoʻgʻi ikkita dars. Ayniqsa, hozirgi dunyo xaritasini koʻziga singdirishga ulgurmagan, endigina boshlangʻich sinfdan chiqib kelgan oʻquvchilarga juda qadimgi, oʻtgan asrlarda tuzilgan xaritalarni, birgina darsning oʻzida oʻrgatishimiz imkonsiz. Bu xaritalardagi barcha geografik nomlar OOʻYlarga kirish uchun murakkab test qilib berilyapti.

Biz 5-sinf oʻquvchisiga, endigina nihol qilib koʻchirilgan daraxt koʻchati tanasiga narsa ilish uchun mix qoqayotganga oʻxshaymiz. 5-sinf oʻquvchilari-

ga qiyinlik qilgan masalalarni toʻrt-besh marta yozib-chizib tushuntirganimizda ham arang tushunadigan oʻquvchilar 8-sinfga oʻtganidan soʻng birgina ogʻzaki aytisak ham tushunib olishadi. Lekin 5-sinf oʻquvchilari 9-sinf “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” mavzularini qiynalmay oʻzlashtirganiga ham guvoh boʻlaymiz. Ushbu darslik mualliflari maktabning 5—9-sinf oʻquvchilariga (bir sinfga 30 nafar), hozirgi fan-texnika davrida geografiya fanidan uzluksiz ravishda necha yil dars oʻtib amaliyot oʻtagani darslik taqrizchilarining maktab oʻqituvchilari boshqa nechta maktabning geografiya oʻqituvchilari bilan oʻzaro xulosaga ke-

lishi bizga qorongʻi. Bu holatni nafaqat geografiya fani, yana kimyo, biologiya, fizika fanlarida ham koʻrishimiz mumkin. Yaʼni ushbu fanlardan amaliy mashgʻulotlar soati bir yilda 10 foiz, rivojlangan davlatlarda esa 30—50 foizini tashkil qiladi. Bugun yoshlar chuqur va puxta bilim egallashlari uchun qanchadan-qancha mablagʻ, mehnat sarflansa-yu oʻqituvchilar foydalanmasa, oʻquvchilarga “koʻrmoqlik bor — yemoqlik yoʻq” tarzida ish tutilsa, ilmga boʻlgan chandogʻi qondirilmagan yoshlardan koʻp narsa umid qila olmaymiz.

Xurshida YOʻLDOSHEVA,
Kitob tumanidagi 2-IDUMI geografiya fani oʻqituvchisi

Ona tili va adabiyot fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
58.	Qaysi javobda egalik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bilan yoziladigan tub so'zlar qatori berilgan?	bilak, qovoq, chelak	axloq, tirmoq, pishloq	sovuq, sana, o'yin	yurak, buyruq, kerak
59.	<i>Turli podsholarni ko'rgan Binotiy yosh Boburning haloligidan qattiq ta'sirlandi.</i> Mazkur gapda qatnashgan so'z birkimlari haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?	Bitishuv usulida birkikan 3 ta o'tli so'z birkimasi qatnashgan.	Boshqaruv usulida birkikan 3 ta fe'lli so'z birkimasi qatnashgan.	Moslashuv usulida birkikan 2 ta o'tli so'z birkimasi qatnashgan.	Bitishuv usulida birkikan 2 ta fe'lli so'z birkimasi qatnashgan.
60.	Yakka shaxsa ishora qilib hurmat ma'nosini ifodalagan ular olmoshi qatnashgan javobni aniqlang.	Sobir tog'amni yaxshi ko'raman. Ammo ular biznikiga bir yilda bir keladilar.	Sakkizinchi sinf o'quvchilari faol. Ular har bir tadbirda o'z chiqishlari bilan ishtirok etishadi.	Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 7000 ga yaqin.	Ularning har ikkisi bugungi musobaqada ilk marotaba qatnashmoqda.
61.	Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki jarangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub?	qadoqchi-qaroqchi	hayron-hayvon	paxta-taxta	chayla-qayla
62.	Qaysi qo'shma gapni tashkil etgan har bir soddaga gap tarkibida hol qatnashgan?	Kimki ilm sirlarni puxta egallasa, kelajakda rohatini ko'radi	Ba'zan oy zarrin kokillarini yer yuziga yoyadi, ba'zan bulut oy yuzini to'sib qo'yadi.	U shaharchaga ko'p kelgan, lekin bu binolarni ko'rmagan edi.	Qosim Arslon akaning gapini eshitib xayol surardi, O'lmas uning so'zlariga quloq solardi.
63.	Qo'shma gapni tashkil etgan har bir soddaga gap tarkibida boshqaruvli so'z birkimasi qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.	Men faqat shuni aytmoqchiman, bizdek do'stlaringizni unutib yubormang.	Qizcha biror so'z demadi, uning hamisha quvnoq ko'zlari allaqanday ma'yusladi.	Safarimiz yil sayin ko'payotir, qatorimiz tobora mustahkamlanyapti.	Safami iztirob aralash hayajon bosdi, chunki u birinchi marta taqdirlanayotgan edi.
64.	<i>Halol tirikchilik qiladigan kovushda'ning o'g'li edi, ammo zamoning og'irligi ng'ayli o'ila boqish uchun o'g'rikini kash qilib olgan edi, shunday bo'lsa-da, bu kash o'ziga yoqmadi.</i> Ushbu parchada fikr yuritilgan obraz qaysi asarda uchraydi?	"Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi	"O'g'ri" hikoyasi	"Urushning so'ngi qurboni" hikoyasi	"Bolaning ko'ngli poshsho" hikoyasi
65.	"Qisasi Rabg'uziy"da ifoda etilishicha, "Yo Rasululloh, manim maqsudim qisos ermas erdi, egningdagi muhri nubuvvatni ko'rsam. Emdid dastur bergil, ul muhr uza qubla berayin, sandin afv qildim", deya o'z maqsadini izhor etgan sahoba nomi qaysi javobda keltirilgan?	Ukosh	Abu Bakr	Umar	Usmon
66.	Qaysi javobda tasavvufiy istiloh (atama) mazmuni xato berilgan?	Jomi Jam — nafsoniy xuruj, shaytoniy istaklar jamlangan voqe'lik ramzi.	Tarso — o'zini Olloh ishiga yetishmoqqa baxshida etgan inson ramzi.	Xaloyiq — dunyoga ko'ngil bergan nafs bandalari ramzi.	Lab — yorning kalomi, ko'rsatmalari, purma'no so'zlari ramzi.
67.	Qaysi gapda // shartli belgisi o'mida ikki nuqta tinish belgisi tushirib qoldirilgan?	Men bu qizni yaxshi tanijman // o'tgan yil tanlovda birga qatnashgan edik.	Dadam shu atrofdan // qishloqdan chiqaverishdan, do'kon qidirdi.	Aql ko'pga yetkazadi // hunar bo'lsa insonni ulug'likka yetkazadi.	Uylar, devorlar, daraxtlar // hamma narsa qorong'ilikka jimgina cho'kdi.
68.	Qaysi gapda fe'lining o'tgan zamon shakli kelasi zamon ma'nosida qo'llangan?	Xo'p, mayli, hozir boshingizni qotirmay, men ketdim.	U shuncha urinsa ham atrofda gilarni bunga ishonтира olmaydi.	Bir vaqt qarasm, ko'zimming yoshini to'xtata olmayapman.	U do'stini bekatda ko'rib qoldi-yu, ko'rmaslikka oldi.
69.	<i>Jismoniy poklik — har kinning ishi, ma'naviy poklik esa vijdonning ishi.</i> Ushbu gap haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?	Ushbu gapdagi barcha so'z birkimlari aniqlovchili birkimlar sanaladi.	Ushbu gapdagi barcha so'z birkimlarining tobe qismlari yasama so'zlar bilan ifodalangan.	Ushbu gapda bitishuvli, moslashuvli va boshqaruvli so'z birkimlari ishtirok etgan.	Ushbu gapdagi so'z birkimlarida ot va sifat turkumiga oid so'zlar hokim qism vazifasini bajargan.
70.	Qaysi javobdagi ma'lumot Uvaysiy haqida?	Hayoti va ijodiy faoliyatining bir qismi malika va shora Nodirabegim iltifoti tufayli Qo'qon xoni Amir Umarxon saroyida kechadi.	Uning ota-onasi buyuk Sobiqiron Amir Temur xonadoniga mansub edi. Bu haqda shoir: "Siyodat xonadoni, shohi Bobur nasli pokimen" deb yozgan edi.	U sakkiz yoshida Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod olgan, to'qqiz yoshida quyidagi baytni yozgan: "Mening maktab aro buldur mu'rodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim".	U hayot har bir inson uchun imtihon ekanligiga urg'u berilgan "Kel, dahri imtihon etib ket" g'azali muallifidir.

№	Savol	A	B	C	D
71.	Qaysi javobda asosi omonim bo'lgan yasama so'z berilgan?	chopiq	ko'zlamoq	bo'g'ma	otilmoq
72.	Yozuvchi 1917-1918-yillardan boshlab ushbu roman uchun material yig'ishga kirishdi. Yozuvchi xalqning hayoti, ahvoli-ruhiyasini yirik badiiy asarda tasvirlash zaruriyatini his etardi. O'zbekning qanday xalq ekanligini ko'rsatib beradigan katta hajimli asarga ulkan ehtiyoj borligini sezardi. Adib romanni 1919-yildan yoza boshladi. 1922-yilda birinchi o'zbek romanning dastlabki boblari "Inqilob" jurnalida chop etildi. 1925-yilda romanning bo'limlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926-yilda esa u yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?	"O'tkan kunlar"	"Kecha va kunduz"	"Qutlug' qon"	"Mehrobdan chayon"
73.	Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?	Bolalar uning bo'shangligini bilib, baravar tortishishdan sira qolmasdi.	Manzilga yetkach sen bilan alohida gaplashaman.	Oradan qancha zamonlar o'tdi, uning nomini faxr bilan tilga olayapmiz.	Ular xozir, o'smirlik chog'idayoq, qudrati qanot paydo qilayotibdi.
74.	Hayotjon G'ulomjonning mardligiga, chidamliligi, qanoatligi va sadoqatiga qo'yil qoldi. Ushbu gapda gap bo'laklari nechta so'z birkimasini hosil qilgan?	8 ta	6 ta	5 ta	7 ta
75.	Qaysi gapda aniqlovchi vazifasidagi so'zda paronim bilan bog'liq xatolik bor?	Sinfimizning ahl va inoq o'quvchilari bugungi bellashuvda ham yutib chiqdi.	Tongda ruhsiz ko'z ochaman, Qovurilar tanga jon.	Ichkariga kirishganda hushsiz yotgan bir kishini ko'rishdi.	Uning qalbidagi bu bo'shliq o'mini hech narsa to'ldira olmas edi.
76.	Bu asarda umri to'rt devor orasida o'tayotgan, na tirikchilikdan, na erdan yalchigan Qurvonbibi, dunyoda faqat eshonning so'ziningina haqiqat deb o'ylagan johil Razzoq so'fi obrazlari uchraydi. Ushbu ma'lumot qaysi asar haqida?	"Kecha va kunduz" (Cho'lpon)	"Mehrobdan chayon" (Abdulla Qodiriy)	"Qutlug' qon" (Oybek)	"Dahshat" (Abdulla Qahhor)
77.	Tadbirimizga muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, hisobchilar, iste'dodli qalamkashlar tashrif buyurishadi. Ushbu gapda ismlar guruhiga mansub nechta yasama so'z qatnashgan?	4 ta	3 ta	6 ta	5 ta
78.	U "Turkman binosi", "Adolat yaxshi" she'rlari muallifidir. Ushbu ma'lumot qaysi ijodkor haqida?	Maxtumquli	Fuzuliy	Avaz O'tar	Mashrab
79.	Qaysi gapda imloviy xato yozilgan fe'l turkumiga oid so'z qatnashgan?	Harakatlangani sari tanasiga issiqlik yugirib, o'zida quvvat sezibdi.	U xamima bilan juda chiroyli muomala qilyapti-ya?!	Qalamla men to'qiyman qo'shiq. U — insonga, elga xizmatim.	Bu o'qituvchi o'zining kichikna shogiriga o'qish va yozishni o'rgatardi.
80.	...ni bolalik vaqtida Erondan kishi o'g'irlab kelguchi bir turkman qo'lidan Otabekning bobosi o'n besh tillo barobariga sotib olgan edi ...ning Otabeklar oilasida qulliqda bo'lg'aniga ellik yillar chamasi zamon o'tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a'zosi bo'lib ketkan. Xo'jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa xo'jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo'lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko'rar edi. "O'tkan kunlar" romanidan olingan ushbu ma'lumot qaysi adabiy qahramon haqida?	Hasanali	Ziyo shohichi	usta Farfi	Rahmat
81.	Yoyiq undalma qatnashgan qo'shma gapni aniqlang.	Chimxo'rsan-da, shirin qizim, shu ham osh yeyishmi?	Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingning halol mehnatning tufayli olding.	Darhaqiqat, vatangado'likdan og'irdard yo'q, do'stim.	Mening uchun xo'p deya qolgin, jon o'rtoq.

(Davomi kelgusi sonlarda.)

Munosabat

Ulug' bekning ulug' dorulfununi

“Xalq so'zi” gazetasi Samarqand davlat universiteti rektori, senator, professor Rustam Xolmurodov bilan “Tamaddun daryosi hamon oqmoqda ravon” sarlavhali suhbatni o'qidim.

Qudratli saltanat va o'zbek davlatchiligiga asos solgan Amir Temur suyuqli nevarasiga o'zining ismini (Muhammad Tarag'ay) qo'ygan bo'lsa-da, o'g'li Shohruhning to'ng'ich farzandiga mehri o'zgacha bo'lib, uning tarbiyasiga alohida ahamiyat berib, ko'proq uni Mirza Ulug'bek deb atardi (balki ardoqli nevarasining o'ziga o'xshagan buyuk va qudratli hukmdor bo'lishini juda ham xohlagandir). Buyuk o'zbek astronomi va matematigi, donishmand davlat arbobi Ulug'bek shu nom bilan jahonga tanildi va tarixga muhurlandi.

Ulug'bekning o'z xalqi va insoniyat oldidagi buyuk jasorati u yashagan tahlil va murakkab zamonda, davlat hokimiyati va mamlakat hududiy daxlsizligi to'xtovsiz va katta xavf ostida bo'lishiga qaramasdan, unga Yaratgandan in'om etilgan ulkan ilmiy salohiyat va favqulodda iste'dodni to'liq ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar eta oldi. Hukmronligi davrida Movarounnahrni dunyoning eng ilg'or ilm-fan markaziga aylantirib, jahon tamadduni ravnaqiga ulkan hissa qo'shdi. Ulug'bek o'zidan oldin o'tgan, jahonga shuhrati taralgan, dunyoviy ilm-fan taraqqiyoti uchun beqiyos hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarimiz — Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiyning bebaho asarlarini ham, muqaddas islom dinimizning haqqoniyli va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, tinchliksevarligi va ma'naviy yuksakligi, insoniyatni doimo ezgulikka chorlashini tarannum etgan Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abdulkoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband kabi mashhur mutafakkir va allomalimiz, aziz-avlodlarimizning boqiy merosini ham chuqur o'rgangan bo'lib, o'zi barpo ettirgan oliy ta'lim muassasalari — madrasayi oliyalarda ham ushbu dunyoviy va diniy ilmlar xazinasi mudarrislar va talabalar tomonidan puxta o'rganilishini talab qilgan.

Nomlari ehtirom bilan tilga olingan ushbu dahoviy fundamental va qomusiy bilimlarga ega ulug' allomalimiz asarlaridan Yevropa universitetlari necha asrlar davomida ta'lim olib, hozirgi zamonaviy nufuzli ta'lim muassasalari darajasigacha ko'tarilgan.

Masalan, Muhammad Muso Xorazmiyning jahonda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga o'nlik sanoq sistemasi-ni, algoritmi va algebra tushunchalarini va shu ilmiy is-

tilohlar bilan bog'liq fan bo'limlarini joriy etgani natijasida aniq fanlar va axborot texnologiyalari uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratilgani, Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan ulug' ajdodimiz Ahmad Farg'oniyning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari XII asrdayoq lotin va ivrit tillariga tarjima etilgani, atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan 1647-yili nashr qilingan “Selenografiya” kitobida Oydagi kraterlardan ikkitasi ikki buyuk vatandoshimiz — Ahmad Farg'oniy va Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalgani, XI asr ko'pgina fan tarixchilari tomonidan “Beruniy asri” deb ta'riflangani, buyuk shifokor Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining besh yuz yil davomida yevropaning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o'qitib kelingani qomusiy tafakkur sohibi bo'lmish buyuk vatandoshlarimizning jahon ilmfani taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hisssasi tufaylidir.

Sharqning shunday ulug' allomalari o'rta asrlar-dayoq butun dunyoga tanigan o'zbek zaminida o'sha zamonlarda universitetlarning bo'lmasligi mumkin emas edi. Bunday oliy ta'lim muassasalari bo'lgan, faqat ular yevropacha tarzda “universitet” deb emas, sharqona nom bilan atalgan. Masalan, madrasayi oliya yoki dorulfunun (arabchadan aynan: dor — uy, funun — fanlar) — fanlar uyi.

Mirzo Ulug'bek o'z davrida diniy ta'limot bilan birga dunyodagi eng ilg'or, eng zamonaviy dunyoviy bilimlarni beradigan, o'quv jarayoni bilan birgalikda diniy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishga o'rgatadigan, ushbu sohada yetuk ulamo va olimlarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari tizimini yaratdi. Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar qurirdi va ularning samarali faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ulug'bek asos solgan va o'zi bevosita rahbarlik qilgan bu oliy ta'lim muassasalarida hayotlik chog'idayoq mashhur bo'lgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi ikki yuzdan ziyod olimlar faoliyat olib borgan.

Ayniqsa, Samarqandda 1420-yildan faoliyatini boshlagan Mirzo Ulug'bek madrasasi hamda osmon jismlari harakatini o'sha davr ilm-fani va muhandislik-texnik inshootlarining eng so'nggi yutuqlari asosida o'rganish uchun bunyod etilgan rasadxona juda mashhur edi. Bunga teng keladigan dunyoda yo'q edi. G'arbning mashhur olimlari — Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley hali bu yorug' dunyoga kelmagan, Yevropada esa ilm-fan kushandasi bo'lgan Inkvizitsiya quturayotgan edi.

Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan keyin ham uning ulug' dorulfununi XVI asrga qadar (ulug' olim hayotligi davridagidek bo'lmas-da) o'z nufuzini



Markaziy Osiyoda saqlab turadi. Alisher Navoiy qomusiy lug'atida ma'lumot berilishicha, buyuk shoir 1460-yillarning ikkinchi yarmida Mashhaddan Samarqandga keladi. Zamonasining taniqli muarrixlari — Abdurazzoq Samarqandiy va Mirxond shoirning Mashhaddan Samarqandga borish sabablarini ilm o'rganishga intilish bilan bog'laydilar. G'iyosiddin ibn Humomidin Xondamir ham “Xulosat ul-axbor” asarida shunga yaqin fikr bildiradi. Alisher Navoiy Samarqandda ikki yil mashhur olim Xoja Fazlulloh Abullaysdan fiqh ilmidan saboq oladi. Mavlono Uloyi Shoshiy, Xoja Xurd, Mavlono Muhammad Olim, Mavlono Soyiliy, Darvesh Ahmad Samarqandiy, Mirzobek, Yusuf Safoiy kabi olim va shoirlar bilan tanishadi. She'riyat va adabiyotshunoslikka doir ko'plab asarlarni o'qib chiqadi, salaf-lar va zamonoshlarining baytlarini yod oladi.

Shoirlarning sultoni Alisher Navoiy o'zining “Farhod va Shirin” asarida:

Temurxon naslidin sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek,
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul ilm sori topti chun dast,
Ko'zi ollinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim bog'lamish — zibi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav' ilmiy osmoniy
Ki, andin yozdi “Ziji Ko'ragoniy”,

– deb ta'kidlaganida tamomila haq edi.

Shunday ekan, “Xalq so'zi” gazetasi chop etilgan suhbatda tashabbus bilan ko'tarib chiqilgan nihoyatda dolzarb takliflarning barchasini, xususan, Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug'bek madrasayi oliyasi — ulug' dorulfununining bevosita vorisi ekanini e'tirof etib, uning yoshi 600 yil etib belgilanishi tarixiy haqiqat va adolatning qaror topishi deb hisoblanishi va Samarqand davlat universitetining bu muborak 600 yoshlik to'yining keng nishonlanishini hamda dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olinishiga erishish bo'yicha bildirilgan takliflarni to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Boshqalarni ham shunga da'vat etamiz.

Baxtiyor DONIYOROV,
filologiya fanlari doktori

Tuyg'u

“Kasbimdan faxrlanaman”

Xom sut emgan bandamiz. Tirikchilik ilinjida o'zimizni o'tga-cho'g'ga urib, shoshilib yashaymiz. Maqsadimiz jondan aziz farzandlarimizga sharoit yaratish, ularni bekam-u ko'st voyaga yetkazish bo'ladi, aslida. Shu cheki yo'q orzularni deb dilbandlarimizning tarbiyasi, bilim-saviyasi bilan shug'ullana olmay qolamiz goho. Barcha mas'uliyatni talim maskanlari zimmasiga yuklab qo'ya qolamiz. Ko'p yillik faoliyatim davomida xilma-xil kishilarni ko'rdim. Farzandlarining xato va kamchiliklarini aytсам, noto'g'ri qabul qiladiganlarini ham uchratdim.

Dono xalqimiz “Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan” deb bejiz gapirmaydi. Ayrim ota-onalarning o'qituvchilarga nisbatan do'q-po'pisasi, hurmatsizligi ko'nglimizni og'ritardi. Pedagoglik kasbiga e'tibor berilib, ularning obro'sini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'qituvchidan talab qilinadi-

gan hujjatlar soni qisqartirildi, bir qancha qulayliklar yaratildi. Bu e'tibor, obro' va hurmat, ayniqsa, pandemiya sharoitida yanada bilindi, desam to'g'ri bo'lar. Chunki onlayn darslar o'tdik, ota-onalar bilan bog'lanib fan mavzularini tushuntirishga to'g'ri keldi. Farzandining dars tayyorlashida yordam berishini so'radik,

ular teleekran orqali berilayotgan darslar mohiyatini biz, pedagoglardan mobil aloqalar orqali qaytadan so'rab turishdi. Kuzatuvlarim davomida shuni angladimki, ko'pchilik ustozlik mashaqqatini anglagandek bo'ldi. Shunday kunlarning birida bir o'quvchining onasi telefon qilib: “Shu paytgacha o'g'limning imlosiga qaramagan ekanman. Husnixatini o'qiy olmadim. Darslarni o'zlashtirishi past, dars qildira olmayapman. Menga maslahat bering” deb murojaat qildi. U ikki bolasi-ga dars tayyorlatguncha qon bosimi oshib ketayotgani, asablari chiday olmayotgani-ni aytdi. Shu mavzudagi suhbatlarni ko'p eshitdim. Ularga yigirma yillik tajribamdan kelib chiqib, maslahat berib bordim. Va deyarli har kuni va hozirgacha telefon raqamimga o'qituvchilik kasbining qiy-

inchiligini his qilgan ota-onaning tashakkurnomasi kelib turibdi:

“Hurmatli o'g'limning ustoz! Siz va sizning jamoangiz sinovli kunlarda farzandalimizga chin dildan bilim berishga intilayotganingiz tahsinga sazovor. Bilim berish qay darajada mashaqqatli ekanini ota-ona sifatida his qilyapmiz. Sizdek jonkuyar ustozlar borligidan faxrlanamiz. Oilamiz nomidan o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz. Mashaqqatli ishlaringizda ulkan zafarlar tilaymiz. Cheksiz hurmat bilan Obidov Saidjonning ota-onasi”.

Mana shu mazmundagi xabarnoma olayotgan o'qituvchilar juda ko'pligiga ishonaman. Shunday kezlarda boshim osmonga yetadi, faxr va g'urur hissi qalbimni zabt etadi. Albatta, shukrona bilan chekkan zahmatlarim, mehnatlarimga rozi bo'laman.

Zuffiyaxon ShUKUROVA,
Farg'ona shahridagi
4-IDUMI o'qituvchisi

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida "Bojxona ishi" ta'lim yo'nalishida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish bo'yicha vazifalar belgilandi. Joriy yilning 5-iyun kuni tasdiqlangan "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni bilan bojxona organi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini yanada oshirish yo'nalishida chora-tadbirlarning belgilanishi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish vazifasi bilan uyg'unlik kasb etdi.

O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati aholining, ayniqsa, yosh avlodning iqtisodiy bilimi, tarbiyasi va madaniyatining qay darajada shakllanganligi darajasiga bog'liq. Shakllanayotgan mehnat bozori mavqeyi, respublikaning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvi uzluksiz ta'lim tizimi bosqichlari oldida turgan vazifalarni hal etishda yangicha yondashuvni talab qiladi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga Murojaatida qayd etilganidek: "... biz O'zbekistonda rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".

Innovatsion iqtisodiyotni ta'minlashda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'rni beqiyos bo'lib, uning natijasida talablarida tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, iqtisodiy hisob-kitobni yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutiladi.

Ta'lim "inson kapitali"ning asosiy tashkil etuvchisi hisoblanib, bugungi kunda moddiy kapital emas, aynan inson kapitali, mashinalar emas, aynan insonlar iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi ekanligi aniq bo'lib qoldi.

Xalqaro ta'lim maydoni jadal rivojlanmoqda, jahon hamjamiyati yashash joyi va ta'lim darajasidan qat'i nazar, inson ta'limining global strategiyasini yaratishga intiladi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish mamlakatimiz oliy ta'limda mavjud an'analar va jahon ta'lim makoniga kirish bilan bog'liq yangi tendensiyalar o'rtasida maqbul muvofiqlikni izlash bilan tavsiflanadi.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tajribasiga nazar solsak, Jahon bojxona tashkiloti bilan hamkorlik qilish platformasida bojxona ishi sohasida kadrlarni tayyorlash jarayonida o'ziga xos sifatli va miqdoriy funksional farqli jihatlarga ega bo'lgan turli tipologik klasterlar asosida shakllangan ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ushbu klasterlar 5 xil ko'rinishda mavjud:

1-klaster — davlat organlari tomonidan ta'sis etilgan maxsus bojxona ta'limini olib boruvchi ta'lim muassasalari (masalan, XXR Davlat bojxona boshqarmasining Shanxay bojxona kolleji; Rossiya Federatsiyasi Federal bojxona xizmatining Rossiya bojxona akademiyasi; Ukraina bojxona xizmati akademiyasi va b.).

2-klaster — universitetlar bazasida shakllangan oliy maxsus bojxona ta'limini

olib boruvchi ta'lim muassasalari (masalan, Germaniyaning Myunster universiteti, Buyuk Britaniyaning Nottingem universiteti, Belorussiya milliy texnika universiteti, AQShning Oklaxoma shtati universiteti, Filippin universiteti litseyi va b.).

3-klaster — ilmiy-tadqiqot tashkilotlari yoki bojxona organlari bazasida shakllangan bojxona ishi bo'yicha to'liq bo'lmagan dasturda faoliyat olib boruvchi ta'lim muassasalari (masalan, Bojxona va savdoni rivojlantirish Koreya instituti — Koreya bojxona xizmati; Eron bojxonasining O'quv va ilmiy-tadqiqot bo'limi va b.).

4-klaster — o'quv markazlari (masalan, Yaponiya Bojxona instituti; Koreya Respublikasining Bojxona-chegara nazorati o'quv markazi; Tailand aksiz to'lovlar va bojxona tadqiqoti markazi).

5-klaster — ilmiy-tadqiqot muassasalari.

Yuqorida keltirilgan dastlabki 2 ta klaster asosida shakllangan ta'lim muassasalari bojxona tizimida xizmat qilish uchun oliy ta'limning va maxsus tayyorgarlikning to'liq universal majmuyini, shuningdek, o'quv jarayonining ilmiy-tadqiqotlar bilan uyg'unligini ta'minlaydi. 3–5-klasterlar bojxona organlarida xizmat qilishga tayyorlash, qayta tayyorlash va moslashishga, bojxona texnologiyalarining rivojlanish sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan. Har bir klasterning amal qilishi o'ziga xos dolzarbligni kasb etib, dunyo mamlakatlarining istiqbolda bojxona organlari uchun kadrlarni tayyorlash maqsadlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillarida bojxona sohasi uchun milliy kadrlarni tayyorlash tizimi shakllangan bo'lib, 2003-yili O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy harbiy bojxona instituti tashkil etildi va bugungi kunda ushbu darog' bitiruvchilari bojxona organlarida o'z xizmat vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Prezidentimizning 2018-yil 2-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori dunyo mamlakatlari bilan olib boriladigan o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni iqtisodiy-huquqiy jihatdan amalga oshirishda munosib xizmat qiladigan bojxonachilarning yangi avlodini tarbiyalash vazifasini dolzarb qilib qo'ydi. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ikki bosqichli "Bojxona ishi" va "Yurisprudensiya (iqtisodiy xavfsizlikni huquqiy ta'minlash)" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar hamda "Bojxona ishi" va "Soliq va bojxona huquqi" mutaxassisliklari bo'yicha 1 yillik magistrlar tayyorlash tizimi shakllantirildi, ta'lim sifatini oshirish va il-

Bojxona organlari kadrlarini xalqaro standartlar asosida tayyorlash masalalari

miy-tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlik aloqalari kuchaytirilib, 2019-yilda Bojxona instituti Bojxona universitetlari xalqaro tarmog'i (INCU) a'zosi bo'ldi, Rossiya bojxona akademiyasi bilan 5 yilga mo'ljallangan hamkorlik rejasini imzolandi, BMT, YXHT, BOMKA bilan hamkorlikda 6 ta xalqaro tadbir (shundan, 3 ta mintaqaviy o'quv seminari) tashkil etildi, 10 nafar xodim xorijiy mamlakatlarda malaka oshirdi va seminar-treninglarda ishtirok etdi. Tom ma'noda, joriy yilning 5 iyun kuni tasdiqlangan "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmon yuqorida qayd etilgan qarorda belgilangan bojxona organlari uchun kadrlarni tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha mantiqiy davomiylikni namoyon etadi.

Dunyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik masalalarining ko'lami kengayib, yangi talablar yuzaga kelmoqda. Bularni amalga oshirish va dunyo bilan teng qadam qo'yish respublikamiz nufuzini yangi pog'onaga olib chiqish uchun faoliyatni tizimli tashkil etish, zamonaviy dunyoqarashdagi va istiqbolli bojxona xodimlarini tayyorlashni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, joriy yilning 5-iyun kuni tasdiqlangan "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmon asosida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning bojxona xizmatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning rivojlantirish sharoitida bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasi va mahoratini yanada oshirish 2020–2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini samaradorligini oshirish konsepsiyasining alohida yo'nalishi sifatida belgilandi. Bu bilan innovatsion iqtisodiyot qaror topib, xalqaro hamkorlik rivojlanib borayotgan bir vaqtda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy va huquqiy bilimlar bilan qurollangan zamonaviy dunyoqarashdagi bojxonachilar safini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya sharoitida bojxona tizimini takomillashtirish mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalaridan biridir. Bu respublikamizning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonlarida faliqlikni oshirish imkonini beradi. Bojxona xizmati faoliyatini samaradorligini oshirishda xususiy sektor va jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, ushbu maqsadlar o'rtasidagi muvozanatga erishish kerak. Ma'lumki, savdo faoliyatini tartibga solish, bojxona ishi sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlar talablarini bajarish, samarali bojxona rejimlarini joriy etish, cheklovchi, himoya choralarini qo'llash,

imtiyozlar va preferensiyalar berish, tovarlar va xizmatlarni yetarli darajada baholash, tovarlarning kelib chiqishini aniqlash qoidalari, zamonaviy infratuzilma va boshqa chora-tadbirlar orqali savdo-sotiqni rivojlantirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari bir qator yutuqlarga erishib, uni Jahon bojxona tashkiloti standartlari va xalqaro bitimlarni qabul qilishga, shuningdek, bojxona ishi sohasida xalqaro amaliyotni joriy etishga tayyorladi. Agar XX asrga qadar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida bojxona majburiy mexanizm sifatida qaralib, davlat uchun daromad olishning asosiy manbai bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bojxona savdo vositasi, davlat farovonligining ko'zgu sifati sifatida qaraladi. Zamonaviy bojxona xalqaro savdoni rivojlantirishni rag'batlantirayotganligi sababli tashqi savdo ishtirokchilari uchun rasmiyatchilikni kamaytirish, mamlakat manfaatlarini himoya qilish, investitsiyalarni jalb qilish, eksportni rivojlantirishga yordam beradi.

Kadrlarning kasbiy ta'limida, shuningdek, iqtisodiyotda global tendensiyalar mavjud bo'lib, ularni e'tiborsiz qoldirish muvqarar ravishda salbiy oqibatlarga olib keladi. Bojxona tizimi faoliyatini samaradorligi, uni doimiy takomillashtirish kadrlar salohiyati bilan bevosita va har tomonlama bog'liqdir. Natijada, bojxona organlarining yuqori malakali xodimlarini tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishni tubdan yaxshilash bojxona ishini jahon standartlari darajasida tashkil etishning eng muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bojxona xodimining funksional vazifalarini to'g'ri va oqilona amalga oshirishga qodir bo'lgan adaptiv mutaxassislar bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Bojxona xodimlari zimmasiga yuklatilgan majburiyat va vazifalarning vijdonan ijro etilishining, shuningdek, yuqori axloqiy va kasbiy fazilatlariga ega bo'lishning asosini bojxona kadrlarini tayyorlash tizimi tashkil etadi. Bojxona xodimlariga yangi talablar qo'yilayotgani bois, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari uchun kadrlar tayyorlash samaradorligiga mutanosib ravishda bojxona ma'muriyatchiligining maqsad va vazifalarini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'lgan bojxona organlari-takomillashtirish mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalaridan biridir. Bu respublikamizning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonlarida faliqlikni oshirish imkonini beradi. Bojxona xizmati faoliyatini samaradorligini oshirishda xususiy sektor va jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, ushbu maqsadlar o'rtasidagi muvozanatga erishish kerak. Ma'lumki, savdo faoliyatini tartibga solish, bojxona ishi sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlar talablarini bajarish, samarali bojxona rejimlarini joriy etish, cheklovchi, himoya choralarini qo'llash,

gan holda jarayonlarni boshqarishni talab etib, davlatlarning "raqamli iqtisodiyot"ni jadal sur'atlarda rivojlantirib yuboradi. Bojxona organlarining faoliyati mamlakat iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida bir vaqtning o'zida bojxona xodimlarining xizmat faoliyatidagi jarayonlarni operativ boshqarish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari faoliyatini yengillashtirish imkonini beruvchi "amaliyot bojxona"ning shakllanishi uchun quyi sharoit yaratadi.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni hayotning barcha jabhalariga, shu jumladan, bojxona organlari uchun kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish dinamikasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv omillari ta'sirining muqarrarligini hisobga olgan holda, ta'lim mazmunining milliy-mintaqaviy tarkibiy qismini saqlab qolgan holda, DBQning Bojxona instituti faoliyatida kursantlarning zamonaviy bilim va qadriyatlariga ega bo'lishida yaxlit uyg'unlikni ta'minlash zarur. Bunday holatlarda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari Jahon bojxona tashkiloti tomonidan taklif etilgan bojxona kadrlarini tayyorlashning xalqaro professional standartlarini joriy etish bo'yicha integratsiya tashabbuslarini amalga oshirishlari mumkin.

Jahon bojxona tashkiloti (JBT — Bryussel shahrida 1950-yil 15-dekabrda tashkil etilgan, O'zbekiston 1992-yil iyuldan beri JBTning a'zosi) davlatlar o'rtasidagi savdoni tartibga soluvchi bojxona tartibotlari bilan shug'ullanuvchi yagona xalqaro hukumatlararo tashkilotdir. Uning faoliyati butun dunyodagi bojxona ma'muriyatlarining samaradorligini oshirish, bojxona tashkilotlarining iqtisodiy xavfsizligini qo'llab-quvvatlash va ta'minlash hamda jahon savdoni yengillashtirishga qaratilgan. 2005-yilda Jahon bojxona tashkiloti bojxona menejerlarining kasbiy rivojlanishi uchun umumiy, jahon standartlari tizimini yaratish maqsadida ushbu sohadagi ko'plab individual manfaatlar va jarayonlarni tizimlashtirishga kirishdi.

JBT bojxona faoliyatining professional standartlarini ishlab chiqdi va bu tashkilot mintaqaviy hamkorlik prinsipi asosida bojxona xodimlarini o'qitish va tayyorlash jarayonida foydalanishni taklif qiladi. Maqsad — bojxona xizmatlari uchun kadrlar tanlashda faoliyat talablarini tavsiflash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan yagona mezonlarni ishlab chiqish. Bularning barchasi butun dunyodagi bojxona ma'muriyatlariga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Xalqaro iqtisodiy makonda, afsuski, umumiy tahdidlar — uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning o'sishi, giyohvandlik vositalari kontrabandasi va noqonuniy aylanishi (narkobiznes va narkotrafik), intellektual mulk huquqlarining yo'q bo'lib ketishi, plagiat va kontrakt mahsulotlarning o'sishi kabilar bilan faqat umumiy sa'y-harakatlarni birlashtirib, bojxona kadrlarini tayyorlashning

yagona standartlari asosida yuqori kasbiy fazilatlarini rivojlantirish asosida kurashish mumkin.

JBT Bojxona universitetlari INCU xalqaro tarmog'i ("Customs Universities International Network") bilan hamkorlikda bojxona xizmatchilarini tayyorlash uchun professional standartlar — PICARD (Partnerships in Customs Academic Research and Development) dasturlari ishlab chiqqan bo'lib, dunyo mamlakatlari bojxona ta'limida bakalavr va magistrnlarni tayyorlash uchun qo'llaniladi. PICARD standartlari quyidagi 3 ta asosiy maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan:

— ishlab chiqilgan yoki qabul qilingan o'quv dasturlarining darajasini baholash uchun standartlarni tayyorlash;

— joylarda o'quv tayyorgarligi darajalarini baholash uchun zarur bo'ladigan mezonlarni ishlab chiqish;

— bojxona xizmatlari uchun kadrlarni tanlashda lavozim yo'riqnomalarini tavsiflashda qo'llaniladigan mezonlarni ishlab chiqish.

Mazkur standartlarga muvofiq tayyorlanadigan bo'lajak bojxona xodimlari bojxona ishi sohasida yetuk mutaxassis sifatida shakllanadilar. Buning uchun bojxona xodimining bilimi, ko'nikmasi va axloqiga nisbatan bir qator talablar belgilanadi. Bojxona xodimining bilimi, ko'nikmasi va axloqiga nisbatan talablar quyidagi sifatlariga ega bo'lishni ta'minlaydi:

— bilimiga qo'yiladigan talablar — milliy va xalqaro siyosat, bojxona organlarida davlatning boshqa nazorat organlari bilan hamkorlik, bojxona ishi, bojxona faoliyatiga doir sud-huquq tizimining aspektlari, mikro va makroiqtisodiyot, moliyaviy menejment, xavflarni boshqarish, savdo amaliyoti, yetkazib berishning xalqaro janri kabi masalalarni tushunish;

— ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar — aqliy qobiliyati, tahlil qilish qobiliyati, qaror qabul qilish, o'z-o'zini baholash qobiliyati, muzokaralarni olib borish qobiliyati, ijodiy qobiliyati kabi jihatlarga ega bo'lish;

— axloqiga nisbatan qo'yiladigan talablar tarbiyaliligi, xolisligi, ishonchligi, mijoz manfaatlariga yo'naltirilganlik kabi fazilatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda bojxona xodimi bojxona ishi bo'yicha mutaxassislardan ko'ra ko'proq bilimga ega bo'lishi kerak. Globallashuv va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bog'liq holda ular uchun talablar juda oshdi. Endi bu faoliyat tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchi mamlakatlarining iqtisodiy siyosatini va bojxona xodimi ishlaydigan savdo muhitini yanada yaxshiroq tushunishni talab qiladi. Ushbu talablarga javob berish uchun ko'proq malakali kadrlar tayyorlashda yangi usullarni ishlab chiqish va qo'llash zarur. PICARDning yillik konferensiyasida kadrlar tayyorlashda yangi texnologiya usullari muhokama qilinadi. Konferensiya yakunida JBT tomonidan e'tirof etilganlik sertifikatlari taqdim etiladi. Ushbu serti-

fikatlar JBT xalqaro standarti bo'yicha bojxona sohasida mutaxassislar va magistrnlarni tayyorlash sifatini tasdiqlab, ushbu universitetlarning barcha bitiruvchilariga JBT grif diplomini olish imkonini beradi, shuningdek, JBT va kuzatuvchi mamlakatlar tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlar tomonidan e'tirof etiladi.

PICARD standartlari yaratilganidan buyon bugungi kunda jahonda 10 ga yaqin ta'lim muassasalarining 20 dan ortiq o'quv dasturlari standartlarga muvofiqligi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazilgan. Bular qatoriga Germaniyaning Myunster universiteti, Latviyaning Riga texnika universiteti, Avstraliyaning Kanberra universiteti, Rossiya bojxona akademiyasi, Sankt-Peterburg axborot texnologiyalari, mexanika va optika universiteti, Shanxay bojxona kolleji, Fransiyaning Gavr universiteti, Buyuk Britaniyaning Lids universiteti, Al-Forobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti va boshqalar.

Dasturlarni akkreditatsiya qilishning maqsadi ularni birlashtirilgan fanlarga tenglashtirish emas, balki ushbu dasturlar bo'yicha ta'lim olayotgan mutaxassislarni tayyorlashning yuqori sifatini tasdiqlashdir. Har bir dastur o'ziga xos. Bu bojxona sohasida bakalavr yoki magistrnlarni tayyorlash dasturi, malaka oshirish kurslari yoki ikkinchi oliy ma'lumot bo'lishi mumkin. Ba'zi universitetlar, masalan, Kanberra universiteti, hatto o'z dasturlari bo'yicha onlayn-kurslarni ham taklif qilishadi. Ularda o'qish davomiyligi 12 oydan 5 yilgacha. Har birining o'ziga xos xususiyati ham tayyorgarlikning yo'nalishi hisoblanadi. Misol uchun, Riga texnika universitetida magistrnlarni tayyorlash dasturida bojxona faoliyatini moliyaviy tartibga solish va biznesni modellashtirish bilan bog'liq masalalar katta ahamiyatga ega. Sankt-Peterburg axborot texnologiyalari, mexanika va optika universitetining Xalqaro biznes va huquq institutida bojxona ishi bo'yicha mutaxassislar bojxona menejmenti va axborot bojxona texnologiyalari bo'yicha tayyorlanadi.

JBT xalqaro sertifikatini olish, albat, talabalarining ijtimoiy va professional harakatlanishini kuchaytiradi va o'z bilimlarni nafaqat o'z mamlakatida, balki chet elda ham qo'llash imkonini beradi. Bojxona institutining "Bojxona ishi" ta'lim yo'nalishini JBTning PICARD professional standartlariga muvofiqligi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazishdan quyidagi natijalar kutiladi:

— mazkur akkreditatsiya asosida muvofiqlik sertifikatining taqdim etilishi institut o'quv dasturlarini Jahon bojxona tashkiloti tomonidan tan olish, bitiruvchilarni xalqaro darajadagi mutaxassis sifatida e'tirof etish va beriladigan diplomlarni JBTga a'zo davlatlarda tan olish imkoniyatini beradi. Bu esa Bojxona institutida nafaqat respublika, balki mintaq davlatlari fuqarolariga xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar asosida ta'lim berish imkoniyatini yaratadi;

— 2019-yil dekabr oyida Xalqaro bojxona universitetlari tarmog'iga (INCU) Bojxona institutining a'zo bo'lganligi mazkur tarmoqning ilg'or tajribalari, jumladan bojxona yo'nalishida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari, xalqaro konferensiya va simpoziumlar hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish bilan bog'liq turli xalqaro tadbirlarda ishtirok etish imkonini beradi;

(Ma'lumot uchun: Bojxona universitetlari xalqaro tarmog'i — INCU 2005-yilda Avstraliyada tashkil etilgan bo'lib, 200 dan ortiq a'zo va filiallarga ega xalqaro notijorat tashkiloti hisoblanadi. Tashkilotning maqsadi bojxona sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashga doir ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va targ'ib qilish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirish orqali bojxonachi kasbining akademik nufuzini ko'tarish. Mazkur tashkilotga Rossiya bojxona akademiyasi, Shanxay bojxona kolleji, Buyuk Britaniya bojxona akademiyasi, Ozarboyjon davlat bojxona qo'mitasining akademiyasi va boshqa bir qator ta'lim muassasalari a'zo. Tashkilot tomonidan nashr qilinadigan "World Customs Journal" jurnali bojxona sohasida nufuzli ilmiy nashr hisoblanib, unda sohaga doir eng so'nggi e'tiborga molik natijalar yoritib boriladi).

— PICARD professional standartlariga muvofiq ta'lim berish, bojxona organlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Xulosa o'rinda qayd etish kerakki, integratsion jarayonlarni rivojlantirishning ushbu bosqichida O'zbekiston uchun globallashuv sharoitida asosiy muammo bojxona organlarining inson resurslarini xalqaro qoidalarga va normalarga moslashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvaffaqiyatli va o'z vaqtida amalga oshirishdan iborat bo'lgan bojxona nazorati va tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlardan muvaffaqiyatli foydalanish, xalqaro yetkazib berish zanjirida raqobatlashish imkoniyatlarini ta'minlashdir. Buning uchun ushbu tizimda, birinchi navbatda, bojxona kadrlarini tayyorlash sifatini yangi bosqichga ko'tarish hamda xalqaro standartlarni tatbiq etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu holatlar esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi bilan belgilangan oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, mehnat bozorida o'z o'rini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish vazifalarining to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi.

Vosidjon ERGASHYEV,
O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining bojxona instituti boshlig'i, bojxona xizmati podpolkovniki, professor
Shohista MURODOVA,
Bojxona instituti dotsenti, bojxona xizmati mayori

Nemis tili fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
<p>Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.</p> <p>Ein idealer Job für einen Studenten! Hans Wörner, 26, ist Student und jobbt als Taxifahrer, um sein Studium zu finanzieren. Er wohnt und studiert in Dresden. Er arbeitet normalerweise nachts: von 22.00 Uhr bis 6.00 Uhr morgens. Er arbeitet gern in der Nacht. "Da ist nicht so viel los", sagt er. Er findet den Job zwar anstrengend, aber als Student ideal. Und die Bezahlung ist auch nicht schlecht: 9,50 Euro die Stunde, dazu das Trinkgeld. "Nein, ich habe keine Angst, in der Nacht zu fahren", sagt er. Aber Hans kennt einen Kollegen, der schon zweimal beraubt worden ist. Natürlich fährt er nicht jede Nacht Taxi. Nur zweimal pro Woche. Der Job macht ihm Spaß, und dazu hat er noch Zeit zu lernen. Am Taxistand wartet er nämlich manchmal eine Stunde, bis ein Kunde kommt. Und in dieser Zeit lernt er für die nächste Prüfung. In den kalten Winternächten hat er immer eine Thermosflasche mit Kaffee dabei. Der einzige Nachteil: Es ist für ihn nicht leicht, acht Stunden im Taxi zu sitzen. Deswegen treibt er regelmäßig Sport: Er fährt sehr gern Rad und joggt im Park.</p>					
81	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Sein Studium bezahlt Hans selbst, indem er als Taxifahrer arbeitet.	Hans arbeitet in zwei Schichten: tags und nachts.	Mit dem Taxi fährt Hans nach Dresden, um zu studieren.	Hans arbeitet als Taxifahrer, weil dieser Beruf sein Traumberuf ist.
82	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Obwohl seine Arbeit anstrengend ist, passt sie für Hans ideal.	Hans ist ein idealer Student.	Die Summe des Trinkgelds beträgt 9,50 Euro.	Hans arbeitet gern in der Nacht, weil es immer etwas Interessantes passiert.
83	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Aussage.	Die Arbeit von Hans fordert von ihm regelmäßige Sportübungen.	Ein Kollege von Hans hat schon zweimal seinen Job getauscht.	Jede Nacht ist es für Hans möglich, im Taxi für Prüfung zu lernen.	Es gibt immer viele Kunden am Taxistand.
84	Auf welche Frage gibt es keine Antwort im Text?	Was studiert Hans?	Wie lange dauert der Arbeitstag?	Welchen Sport treibt Hans?	Wie oft in der Woche arbeitet Hans?
<p>Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.</p> <p>Einmal kam ein armer Mann in ein Wirtshaus. Dort sah er einen großen Braten an einem Spieß. Der Arme hatte ein Stück Brot mit. Er nahm es aus seiner Tasche, hielt es zwischen dem Braten und dem Feuer, so dass der Geruch von dem Braten in das Brot zog. Das tat der Arme so lange, bis er sein Brot aufaß, dann wollte er fortgehen. Der Wirt aber ging ihm nach und verlangte, dass er ihm das Essen bezahlt. Der Arme sagte: "Was soll ich bezahlen, wo ihr mir doch nichts zu essen und zu trinken gaben?" Der Wirt sagte: "Du hast dich gesättigt von dem Geruch meines Bratens, und das sollst du mir bezahlen." Sie stritten lange Zeit und kamen schließlich vor Gericht. Der Richter wusste nicht Rat, und das Urteil wurde aufgeschoben. Einer der Richter, der einen Narren zu Hause hatte, erzählte bei Tisch von dieser Sache. Nachdem sich alle die Geschichte angehört hatten, sagte plötzlich der Narr: "Der Arme soll dem Wirt bezahlen mit dem Klang des Geldes, so wie er satt geworden ist von dem Geruch des Bratens." Als nun der Gerichtstag kam, wurde dieses Urteil, das der Narr erfunden hat, gesprochen, und dabei blieb es.</p>					
85	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Warum kam ein armer Mann in ein Wirtshaus?	Er war sehr hungrig.	Er wollte Brot kaufen.	Er wollte sich am Feuer wärmen.	Er hatte dort das Treffen mit einem Richter.
86	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Warum verlangte der Wirt vom armen Mann das Geld?	Weil er vom Geruch des Bratens satt wurde.	Weil er in seiner Tasche den Braten versteckte.	Weil es verboten war, mit seinem Brot das Wirtshaus zu betreten.	Weil er den Braten am Feuer verbrannte.
87	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Das Urteil wurde aufgeschoben, ...	weil der Richter ganz ratlos war.	weil der Wirt und der Arme lange Zeit stritten.	weil der Richter dringend nach Hause fahren musste.	weil keine Zeugen vor Gericht kamen.
88	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Die gerichtliche Entscheidung über den Fall wurde vom ... getroffen.	Narren	Richter	Armen	Wirt
<p>Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.</p> <p>Helmut, 13, ist das erste Mal ohne Eltern in Urlaub. Er schreibt in seinem Tagebuch: "In Marina Neuhof steht ein einziger Kiosk, und der ist ziemlich teuer. Darum bin ich bei fast jedem Ausflug dabei. Zweimal fahren wir nach Stralsund. Zu dritt dürfen wir dort allein rumgehen. Wir bummeln durch die Geschäfte, essen einen Döner und gucken uns den Hafen an. Außerdem besorgen wir uns Vorräte: Bonbons, Weingummi, Schokoladé und Chips. Meistens ist das Wetter o.k., dann gehe ich gern schwimmen. Andere gehen in ihre Zelte und lesen. Es gibt ein paar Segelboote, doch die meisten wollen surfen. Ein paar Surfler, die in Neuhof ihre Ausbildung machen, unterrichten uns. Das klappt ziemlich gut. Schon nach drei Tagen surfen wir in der Bucht rum. Am Strand ist ständig was los. Jeden Tag schmeißen wir einen ins Wasser — mit vollen Klamotten! Bei einer Strandolympiade müssen wir Sandburgen bauen, in der Staffel schwimmen, Tau ziehen und Teebeutel möglichst weit werfen. Ehrensache: Meine Gruppe gewinnt. Der Preis: Cola und Süßigkeiten. Abends ist meistens Party. An drei Abenden ist ein Surfler der Diskjockey. Bei der Filmaacht sehen wir drei Videos hintereinander. Beim dritten Film schlafe ich ein."</p>					
89.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Am Strand ...	ist immer was passiert.	ist nie was passiert.	gibt es nichts interessantes.	ist es ständig langweilig.
90.	Wählen Sie die dem Textinhalt nicht entsprechende Variante.	Im Kiosk in Marina Neuhof kann man Süßigkeiten zu günstigen Preisen besorgen.	Während des Ausflugs in Stralsund kann man den Hafen besichtigen.	Es wird erlaubt, in Stralsund zu dritt durch Geschäfte zu bummeln.	Der Kiosk in Marina Neuhof gefällt Helmut nicht, weil dort die Preise hoch sind.

№	Savol	A	B	C	D
91.	Wählen Sie die dem Textinhalt nicht entsprechende Variante.	Dem Schwimmen zieht Helmut das Lesen im Zelt vor.	Obwohl es ein paar Segelboote gibt, surfen die meisten lieber.	Weil Surfler gut unterrichten, können die meisten nach drei Tagen in der Bucht rumsurfen.	Wenn das Wetter gut ist, geht Helmut schwimmen.
92.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Helmuts Gruppe wird bei einer Strandolympiade Sieger.	Man kann am Strand Cola und Süßigkeiten kaufen.	Während der Strandolympiade finden Partys statt.	Abends sieht man Videos.
<p>Lesen Sie den Brief und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.</p> <p>Lieber Herr Dr. Meier, ich habe ein ganz großes Problem! Ich besuche die 10. Klasse vom Gymnasium und im nächsten Monat machen wir mit unserer Kunstlehrerin eine Klassenreise nach Italien. Wir haben ein tolles Programm. Alle freuen sich und ich möchte auch gern an der Fahrt teilnehmen, aber wir fahren mit dem Bus. Und das ist mein Problem: Immer wenn ich mit dem Bus fahre, ist mir nach einer halben Stunde Fahrt schrecklich schlecht und mein Kopf tut dann auch furchtbar weh. Ich habe schon einmal Tabletten genommen, aber die haben nicht geholfen. Meine Eltern sagen jetzt, ich soll zu Hause bleiben, aber das will ich natürlich nicht. Meine Lehrerin möchte auch, dass ich mitkomme, weil ich die Reise mit zwei Mitschülerinnen vorbereitet habe. Was kann ich nur machen? Soll ich vielleicht mal zum Arzt gehen? Bitte helfen Sie mir! Saskia</p>					
93.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Die Klassenfahrt nach Italien findet Saskia toll.	Saskia hat große Probleme im Gymnasium wegen ihrer Kunstlehrerin.	Saskia möchte in den Sommerferien mit ihren Eltern nach Italien fahren.	Saskia findet ihre Kunstlehrerin toll.
94.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Saskia fühlt sich nicht wohl, wenn sie mit dem Bus fährt.	Die Busreisen findet Saskia langweilig.	Saskia kann nicht mitfahren, weil sie zurzeit krank ist.	Jede halbe Stunde muss Saskia Tabletten einnehmen.
95.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Die Lehrerin will, dass Saskia an der Reise teilnimmt.	Saskia will nicht zum Arzt gehen.	Wegen ständigen Kopfschmerzen soll Saskia zu Hause bleiben.	Die Eltern sagen, dass Saskia Tabletten nehmen soll.
96.	Auf welche Frage gibt es eine Antwort im Text?	Wer hat das Programm für Klassenreise vorbereitet?	Wie lange dauert die Klassenreise nach Italien?	Welche Verkehrsmittel trägt Saskia gut?	Was steht im Reiseprogramm?
<p>Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu vier Aufgaben. Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung.</p> <p>Charles Spencer Chaplin wurde am 16. April 1889 in London geboren. Die Familie war sehr arm und suchte oft in Hilfsstätten Unterschlupf. Charlie Chaplin hatte das Talent seiner Eltern geerbt. Bereits im Alter von fünf Jahren trat er vor Publikum auf, als Neunjähriger arbeitete er für eine Künstleragentur. 1903 verließ Chaplin die Agentur und versuchte sich als selbstständiger Schauspieler. Drei Jahre lang tourte er als Darsteller in der Theaterversion von Sherlock Holmes durch Europa, bis er 1908 doch wieder einen Vertrag unterschrieb. Diesmal wollte ihn Fred Karno, ein berühmter Theaterproduzent, als Pantomime-Darsteller groß rausbringen. Und es gelang: Charlie Chaplin spielte von 1910 bis 1912 verschiedene Rollen und reiste mit der Gruppe nach Nordamerika. Dort entdeckte ihn auch die amerikanische Filmindustrie. Chaplin war von nun an Filmschauspieler bei den Keystone Filmstudios in den USA und verdiente mit Stummfilmen sein Geld. Mit wachsendem Erfolg stieg auch sein Gehalt — Chaplin verdiente bis zu 150 000 Dollar pro Woche. Er wechselte mehrere Male die Filmunternehmen, bis er 1915 den Höhepunkt seiner Karriere erreichte. Zu dieser Zeit gab es Chaplin-Puppen, Zeitungcomics und Lieder über den beliebten Komiker und Schauspieler. Mit seinem einzigartigen Stil hatte er sich zu einem Symbol entwickelt.</p>					
97.	Wählen Sie die dem Textinhalt nicht entsprechende Variante.	Die Familie musste oft ihre Unterkunft in einer Künstleragentur finden.	Charles Spencer Chaplin ist in England zur Welt gekommen.	Seine Begabung bekam er von seinen Eltern.	Als Chaplin fünf war, traf er öffentlich auf.
98.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante.	Bis Chaplin mit Fred Karno einen Vertrag unterschrieb, arbeitete er als selbstständiger Schauspieler.	Binnen 3 Jahren arbeitete Chaplin vertraglich in Europa.	1908 tritt Chaplin als unabhängiger Pantomime-Darsteller auf.	Ein berühmter Theaterproduzent schlug Chaplin vor, Sherlock Holmes zu spielen.
99.	Wählen Sie die dem Textinhalt nicht entsprechende Variante.	Chaplin verdiente sein Geld als Filmunternehmer.	In Nordamerika hat die Filmindustrie Chaplin Aufmerksamkeit geschenkt.	Als Filmschauspieler verdiente Chaplin in Amerika in Filmen ohne Ton.	Dank seinem wachsenden Erfolg hatte Chaplin hohe Bezahlung.
100.	Wählen Sie die dem Textinhalt entsprechende Variante. Seine ... Gestalt wurde zu einem Symbol.	unvergleichliche	gewöhnliche	unangenehme	ernsthafte

Biologiya fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savollar	A	B	C	D
69.	To'g'ri fikrlar berilgan javobni aniqlang. 1) DNK bo'lagini rekombinant vektor konstruksiyalar vositasida ko'paytirish genlarini klonlash deb ataladi; 2) transmissibl plazmid bakteriya bo'linganida qiz hujayralar orasida tasodifan taqsimlanadi; 3) xromosomasining maxsus DNK izchilligini kesib, rekombinatsiya bo'la oladigan tuzilmalar transmissibl plazmidlar hisoblanadi; 4) ligaza, restriktaza, transpozaza vektor sifatida foydalaniladigan irsiy molekulalardir.	1, 3	2, 3	1, 2	3, 4
70.	Tovuqlarda toj shakli ikki juft noallel komplementar genlar ta'sirida irsiylanadi. Gomozigota gulsimon tojli (A) va gomozigota no'xatsimon tojli (B) tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilsa yong'oqsimon tojli tovuqlar hosil bo'ladi. Retessiv genlar oddiy tojni yuzaga chiqaradi. Ab tipidagi gametalar hayotchan bo'lmagan digeterozigota tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilib 180 ta jo'ja olindi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang: a) avlodda olingan jo'jalarning fenotipik guruhlari nisbati; b) avlodda olingan AABb va AaBb genotipli jo'jalarning soni.	a — 3 ta no'xatsimon, 5 ta yong'oqsimon, 1 ta oddiy tojli; b — 60ta	a — 3 ta no'xatsimon; 3 ta gulsimon; 3 ta yong'oqsimon; b — 72 ta	a — 3 ta gulsimon; 2ta no'xatsimon, 5 ta yong'oqsimon; b — 60ta	a — 2ta gulsimon; 5 ta yong'oqsimon, 1 ta oddiy, 3 no'xatsimon; b — 80ta
71.	Odam organizmida neyrogumoral bosqichlarida bosqichlar tizimlari va ularning funksiyalari o'rtasidagi muvoziqlik to'g'ri berilgan javobni aniqlang. a) qalqonsimon bez; b) gipofiz; c) simpatik nerv sistemasi; d) parasimpatik nerv sistemasi; 1) hazm bezlari faoliyatini kuchaytiradi; 2) hazm fermentlar ajralishini kuchaytiradi; 3) hazm bezlari faoliyatini susaytiradi; 4) me'da harakatini susaytiradi; 5) hazm fermentlar ajralishini susaytiradi; 6) ichak peristaltikasini kuchaytiradi; 7) ichak peristaltikasini susaytiradi; 8) me'da harakatini kuchaytiradi.	a — 3; b — 1; c — 7; d — 8	a — 1; b — 3; c — 4; d — 6	a — 5; b — 2; c — 6; d — 7	a — 2; b — 5; c — 8; d — 4
72.	Avtotrof organizmlarni aniqlang.	nitrifikator bakteriya, yapon laminariyasi	kabarga, xlorella	riniya, keta	suviyig'ar, tripanosoma
73.	Ceterotrof organizmlarni aniqlang.	tripanosoma, nozema	chiruvchi bakteriya, nitrifikator bakteriya	leyshmaniya, temir bakteriyasi	raffeziya, oltinugurt bakteriyasi
74.	Sovuq qonli (a) va issiq qonli (b) hayvonlarni aniqlang.	a — daryo qisqichbaqasi; b — laylak	a — ustirisa; b — aureliya	a — baqa; b — agama	a — emu; b — suqsun
75.	Sovuq qonli (a) va issiq qonli (b) hayvonlarni aniqlang.	a — qizil chuvalchang; b — zog'cha	a — baqachanoq; b — krevetka	a — gavial; b — tilyapiya	a — tasqara; b — ko'rshapalak
76.	Tovuqlarda toj shakli ikki juft noallel komplementar genlar ta'sirida irsiylanadi. Gomozigota gulsimon tojli (a) va gomozigota no'xatsimon tojli (b) tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilsa, yong'oqsimon tojli tovuqlar hosil bo'ladi. Retessiv genlar oddiy tojni yuzaga chiqaradi. Ab tipidagi gametalar hayotchan bo'lmagan digeterozigota tovuq va xo'rozlar o'zaro chatishtirilib, 180 ta jo'ja olindi. Yuqoridagi ma'lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang: a) avlodda olingan jo'jalarning genotiplari; b) avlodda olingan gulsimon tojli jo'jalarning soni.	a — AaBb, AaBb, AaBb, aabb, aaBb; b — 60ta	a — AaBb, AaBb, AaBb, aabb, aabb; b — 80ta	a — AaBb, AaBb, AaBb, aabb, aabb; b — 60ta	a — AaBb, AaBb, AaBb, aabb, aabb; b — 40ta
77.	"Hoyvonlarning paydo bo'lishi" (a), "Zoologiyaga kirish" (b), "Turlarning paydo bo'lishi" (c) asari mualliflari to'g'ri juftlangan javobni toping.	a — Aristotel; b — J.B.Lamark; c — Ch.Darvin	a — Ch.Darvin; b — I.P.Pavlov; c — J.B.Lamark	a — Ch.Darvin; b — N.Griyu; c — K.Linney	a — J.B.Lamark; b — N.Griyu; c — K.Linney
78.	Evolutsiya natijasida organik olamda muhit sharoitiga oqoblanuvchi rang (a), himoya rangi (b) orqali moslashgan organizmlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang. 1) gornostay yozda bir qishda boshqa rangda bo'ladi; 2) kallima kapalagi qanotlari shakli, naqsh va tomlari bargga o'xshash bo'ladi; 3) qovog'ari tana rangi ko'zga yaqqol tashlanadi; 4) xonqizi qo'ng'iz tana rangi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi; 5) kvaksba baqasining tanasi yashil rangda bo'ladi.	a — 4; b — 1	a — 2; b — 4	a — 5; b — 2	a — 1; b — 4
79.	Evolutsiya natijasida organik olamda oqoblanuvchi rang (a), maskirovka (b) orqali moslashgan organizmlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang. 1) qovog'ari tana rangi ko'zga yaqqol tashlanadi; 2) xonqizi qo'ng'iz tana rangi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi; 3) chupchik hasharoti rangi va shakli ingichka novdani eslatadi; 4) kallima kapalagi qanotlari shakli, naqsh va tomlari bargga o'xshash bo'ladi; 5) gornostay yozda bir qishda boshqa rangda bo'ladi.	a — 2; b — 3	a — 4; b — 2	a — 5; b — 1	a — 3; b — 5
80.	Quyidagi organizmlarga xos bo'lgan tushunchalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. a) finariya; b) dala qiribgo'g'imi; c) sharq samri; d) sachratqay; e) zahursochi; 1) spooftil; 2) poya; 3) barg; 4) ildiz tizimi; 5) urug'kurtak; 6) arxeogony; 7) murtak xalta; 8) chang donasi; 9) o'tkazuvchi nay; 10) sorus.	a — 2; b — 6; c — 8; d — 9; e — 4	a — 2; b — 5; c — 3; d — 6; e — 10	a — 8; b — 3; c — 9; d — 7; e — 2	a — 2; b — 7; c — 4; d — 5; e — 1
81.	So'ng'ichilar sinfiga mansub jigar qurtining hayot siklida 3 va 5 ritsiqalarga muvofiq ravishda mos keladigan bosqichlar qaysi javobda to'g'ri keltirilgan? Urug'langan tuxum → tashqi muhitdagi tuxum → 3 → oraliq xo'jayin tanasidagi lichinka → 5 → sista → asosiy xo'jayin tanasidagi lichinka → voyaga yetgan jigar qurti	3 — finna; 5 — asosiy xo'jayin tanasidagi lichinka	3 — kiprikli lichinka; 5 — dumli lichinka	3 — dumli lichinka; 5 — asosiy xo'jayin tanasidagi lichinka	3 — kiprikli lichinka; 5 — finna

№	Savollar	A	B	C	D
82.	Fenotipik o'zgaruvchanlik berilgan javobni aniqlang. 1) kalta oyoqli qo'yning paydo bo'lishi; 2) bedaning suv yetari joyda baland, suv kam joyda past bo'lyi bo'lib o'sishi; 3) poyaning uchi chipingandan so'ng yon novdalarning ko'plab o'sib chiqishi; 4) bug'doyning 42 xromosomalarning paydo bo'lishi.	2, 3	1, 4	1, 2	3, 4
83.	Tirik organizmlarning suv tanqisligida suv bug'lanishini kamaytiruvchi moslanishlarni aniqlang. 1) sahra baqasi maxsus siydik pufagida suvni zaxiralashi; 2) suv ko'p yo'qotganda lishayniklarning hayot faoliyatini saqlab qolishi; 3) saksosul barglarining tangachasimon shaklda bo'lishi; 4) barg og'izchalarining kunduzi yopilish, tunda ochilishi.	3, 4	1, 2	2, 3	1, 4
84.	Nuqtalar o'rni mos javobni tanlang. Oq amur lansetnikdan farq qilib ...	zuragi bo'ladi	jabra orqali nafas oladi	xordalilar tipiga mansub	qon aylanish sistemasi yopiq
85.	Nuqtalar o'rni mos javobni tanlang. Zog'ora baliq dengiz tulkisidan farq qilib ...	skeleti suyakdan iborat	jabra orqali nafas oladi	zuragi ikki kamerali	qon aylanish sistemasi yopiq
86.	Nuqtalar o'rni mos javobni tanlang. Siklop soxta kurakburun singari ...	jabra orqali nafas oladi	qon aylanish sistemasi yopiq	skeleti suyakdan iborat	nerv sistemasi bosh va orqa miyadan iborat
87.	Tulkida ovqatga nisbatan shartsiz refleks hosil bo'lishida reflektor yoyi bo'ylab nerv impulsining o'lish yo'lini aniqlang. 1) so'lak bez; 2) uzunchoq miya; 3) harakatlantiruvchi nerv; 4) tam bilish reseptorlari; 5) sezuvchi nerv; 6) solak ajralishi; 7) bosh miya katta yarimsharhiaro po'stlog'i.	4→5→2 →3→1→6	4→1→ 2→3→5→6	1→4→5 →7→3→6	1→4→ 2→7→5→6
88.	Quyidagilardan meyoziy bosqichlariga mos keladigan xromosomalarni to'plam to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. a) bir DNKII xromosomalarning diploid to'plami; b) bir DNKII xromosomalarning gaploid to'plami; c) ikki DNKII xromosomalarning diploid to'plami; d) bir DNKII xromosomalarning tetraploid to'plami; e) ikki DNKII xromosomalarning gaploid to'plami.	c — interfaza G ₁ davri; c — metafaza I; c — anafaza I; b — telofaza II	b — interfaza S davri; c — metafaza I; d — anafaza I; e — telofaza I	a — interfaza G ₁ davri; c — metafaza II; c — anafaza I; e — telofaza II	c — interfaza G ₁ davri; c — metafaza I; c — anafaza II; e — telofaza I
89.	Mikroevolutsiya (a) va makroevolutsiya (b) ni ifoda etuvchi evolution o'zgarishlarni aniqlang. 1) moviy natinachining paydo bo'lishi; 2) yirtqichlar turkumining paydo bo'lishi; 3) populyatsiya genofondining o'zgarishi; 4) kavkaz qirg'ovul kenja turining paydo bo'lishi; 5) aramorfoz yo'nalishidagi evolution o'zgarishi; 6) ra'nodoshtlar o'lasining kelib chiqishi.	a — 1, 3; b — 2, 6	a — 5, 6; b — 3, 4	a — 2, 5; b — 1, 3	a — 2, 6; b — 1, 4
90.	Berilgan organizmlardan birinchi tartibli (darajali) konsumentlar sonini aniqlang. 1) qum bo'g'ma iloni; 2) qora kalskat; 3) moviy nimchi; 4) karam kapalagi qurti; 5) chayon; 6) chipor ilon; 7) cho'chqa tasmassimon chuvalchang; 8) so'na; 9) kolorado qo'ng'izi; 10) zur; 11) boyo'g'li; 12) bug'u; 13) miya; 14) qub meduzasi; 15) kaptar; 16) jayron; 17) jirafa.	8	10	12	11
91.	Berilgan organizmlardan birinchi tartibli (darajali) konsumentlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang. 1) sakkizyoq; 2) so'na; 3) suluv nimchi; 4) sariq ilon; 5) karam kapalagi qurti; 6) kaptar; 7) jayron; 8) jirafa; 9) qirg'iz; 10) zur; 11) boyo'g'li; 12) bo'ka; 13) bug'u; 14) qub meduzasi; 15) qum bo'g'ma iloni; 16) qora kalskat; 17) miya.	5, 6, 7, 8, 10	1, 4, 9, 12, 15	2, 6, 7, 14, 17	3, 9, 11, 13, 16
92.	Qoqshol qo'zg'atuvchi uchun xos tuzilmalarni aniqlang. 1) ribosoma; 2) mitoxondriya; 3) donador endoplazmatik to'r; 4) plazmatik membrana; 5) silliq endoplazmatik to'r; 6) DNKning halqa molekuli.	1, 4, 6	2, 3, 5	1, 4, 5	3, 5, 6
93.	Energiya almashuvi bosqichlari va ularda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'ri juftlangan javobni aniqlang. 1) murakkab uglevodlarning parchalanishi; 2) glukozaning parchalanishi; 3) sut kislotaning CO ₂ va H ₂ O gacha parchalanishi; 4) ATF sintezi; 5) spirt va CO ₂ ning hosil bo'lishi. a) tayyorgarlik bosqichi; b) ikkinchi bosqich; c) uchinchi bosqich.	a — 1; b — 2, 4; c — 3, 4	a — 1, 2; b — 4; c — 3, 5	a — 1, 4; b — 2; c — 4, 5	a — 2; b — 1, 4; c — 3, 4
94.	Nazariy jihatdan DNK molekulasining birinchi zanjirida nukleotidlar ATG TGA GGT ACA CGT GGT GAT TCA ketma-ketlikda joylashgan bo'lsa, shu qo'sh zanjirdagi har bir nukleotid yig'indisini aniqlang.	A — 13, C — 11, T — 13, G — 11	T — 6, A — 7, C — 4, G — 7	A — 11, T — 11, C — 13, G — 13	A — 7, T — 4, C — 6, G — 7
95.	Nazariy jihatdan DNK molekulasining birinchi zanjirida nukleotidlar TAG ACG GAC TGG TCA GGT GAT TCG ketma-ketlikda joylashgan bo'lsa, shu qo'sh zanjirdagi har bir nukleotid yig'indisini aniqlang.	A — 11, C — 13, T — 11, G — 13	T — 5, A — 6, C — 9, G — 4	A — 5, T — 6, C — 4, G — 9	A — 12, T — 10, C — 18, G — 8
96.	Peridermaning epidermadan farqli jihatlarini aniqlang. 1) daraxtlarning tanasini hosil qiladi; 2) hujayralari o'lik; 3) ikkilamchi qoplovchi to'qima; 4) suberina ega; 5) mun bilan qoplangan; 6) bir qavat shaffof hujayradan iborat.	2, 3, 4	1, 5, 6	1, 3, 5	2, 4, 6
97.	Berilgan tuzilmalar mansub to'qimalarni aniqlang. 1) xlorenxima; 2) periderma; 3) kollenxima; 4) traxeidlar.	1 — asosiy; 2 — qoplovchi; 3 — mexanik; 4 — o'tkazuvchi	1 — qoplovchi; 2 — asosiy; 3 — o'tkazuvchi; 4 — mexanik	1 — hosil qiluvchi; 2 — mexanik; 3 — qoplovchi; 4 — o'tkazuvchi	1 — assimilyatsion; 2 — qoplovchi; 3 — o'tkazuvchi; 4 — mexanik
98.	Mevalarning nomlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang. 1) Pskom piyozining qo'zoqchasi; 2) qo'ng'irbo'shning pistasi; 3) xrizantemaning ko'sakchasi; 4) oquray dukkagi; 5) makkajo'xoring doni; 6) madaniy tokning rezavor mavasi; 7) qayrag'ochning qanotchali mevasi.	4, 5, 7	2, 5, 6	1, 3, 4	3, 5, 6
99.	Biologik jarayon va hodisalarni ular o'rganadigan fan bilan mos holda juftlangan javobni aniqlang. 1) silliq endoplazmatik to'rda r'dagi metabolizm jarayoni; 2) ko'k kaptar embrionida jabra yoriqlarining bo'lishi.	1 — sitologiya; 2 — embriologiya	1 — briologiya; 2 — fixenologiya;	1 — lixenologiya; 2 — paleontologiya	1 — morfologiya; 2 — paleobotanika

Fransuz tili fanidan test savollari

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

№	Savol	A	B	C	D
<p>Lisez le texte et faites les quatre devoirs d'après celui-ci.</p> <p>— Ce matin nous allons rapidement passer en revue les principales régions françaises, a dit le professeur. Ensuite nous reviendrons sur chaque région et puis nous tâcherons de dessiner des cartes de mémoire. Voyez... Il s'est tourné vers le tableau sur lequel se trouvait une magnifique carte de la France en couleurs. Le professeur imaginait un cycliste qui sortait du Nord et se promenait dans tout le pays. Il allait d'abord dans un paysage de grandes plaines à betteraves et à blé. Puis c'était la grasse Normandie, où le cycliste pédalait dans les immenses champs de blé. Il se reposait un peu sur les côtés de la Loire, dans les jardins de la Touraine et de nouveau, sur Bordeaux et la côte de l'Océan Atlantique. Ce tour de France lui permettait de traverser le Grand Lanquedoc, la Côte d'Azur... La baguette du professeur passait d'une région à l'autre. Les enfants, les yeux brillants, imaginaient sans peine au bout de cette baguette les <u>trésors du pays</u>.</p>					

81.	Choisissez la phrase qui correspond bien au texte.	Dans ce texte il s'agit de la leçon de géographie.	Le professeur était un homme très sévère.	Le professeur a dessiné une carte de mémoire au tableau.	Il parlait sans cesse sur chaque pays du monde.
82.	Choisissez la question à laquelle il n'y a pas de réponse dans ce texte.	Pourquoi ce professeur mentait toujours ses élèves?	Qu'est-ce que le professeur a proposé à ses élèves?	Pourquoi il s'est tourné vers le tableau?	Qu'est-ce qu'il y avait sur le tableau?
83.	Choisissez l'acception correcte du mot souligné dans le texte.	les régions	la capitale	la carte	les champs
84.	Choisissez la suite correcte. Le professeur a imaginé un cycliste pour ...	bien expliquer le thème sur les régions françaises	bien expliquer aux élèves l'itinéraire des cyclistes	bien expliquer les règles du Tour de France	bien expliquer comment participer au Tour de France

<p>Lisez le texte et faites les quatre devoirs d'après celui-ci.</p> <p>— Bertrand, dit Isabelle, pourriez-vous être à la maison à l'heure du thé? J'attends Nathalie et il m'est pénible de la recevoir seule. Nous ne l'avons pas revue depuis la mort de son mari et ce qui est arrivé me semble tellement affreux que je ne conçois pas comment elle survit... C'est trop pour un seul être... Il n'y a plus de consolation humaine à offrir... Franchement je ne sais que lui dire. D'ailleurs elle dit, dans sa lettre, qu'elle aimerait à vous demander un conseil. Il consulta son carnet et fit un geste d'ennui.</p> <p>— Cela va déranger tous mes plans mais je serai avec vous. Ne croyez-vous pas que la meilleure attitude, en de tels cas, est de parler très peu? Je pense qu'en vous retrouvant, elle pleurera. Alors prenez-la dans vos bras; embrassez-la; laissez agir l'instinct...</p> <p>Le soir, quelques minutes après l'heure fixée il entra dans le petit salon d'Isabelle.</p> <p>— Je suis nerveuse, dit-elle, j'essaie de lire, mais je ne puis penser qu'à cette malheureuse. C'est affreux.</p> <p>— Soyez plus calme, dit-il. Il ne faut jamais se préparer aux actes difficiles...</p> <p>Un coup de sonnette court, timide déchira le silence. Isabelle se leva.</p>					
--	--	--	--	--	--

85.	Après quel événement dans sa vie, Nathalie a-t-elle demandé de la recevoir dans la maison de ses amis?	Après la mort de son mari.	Après la naissance de son fils.	Après son mariage.	Après le voyage en Grèce.
86.	Isabelle, pourquoi était-elle bouleversée?	Elle ne savait pas comment consoler son amie.	Elle était malade.	Elle ne savait pas quel thé servir.	Elle ne savait pas quelle robe mettre.
87.	Quelle phrase appartient au texte?	Isabelle a demandé à son mari d'être à la maison à l'heure du thé.	Nathalie est venue chez ses amis avec ses deux enfants.	En consultant son carnet Bertrand a dit qu'il aurait une affaire très importante.	Dans sa lettre Nathalie a écrit qu'elle avait perdu son mari.
88.	Choisissez la question à laquelle il n'y a pas de réponse dans le texte?	Comment était mort le mari de Nathalie?	Depuis quand les amis ne se voyaient pas?	Qu'est-ce que Nathalie a écrit dans sa lettre?	Est-ce que Isabelle savait bien comment consoler son amie?

<p>Lisez le texte et faites les quatre devoirs d'après celui-ci.</p> <p>Le général Bramble me pria de venir passer les fêtes de Noël à la campagne: "Je n'invite cette année que mon beau-frère, Lord Tullock, ce ne sera donc pas bien gai; mais si vous ne craignez ni la solitude, ni l'hiver anglais, nous serons heureux de vous recevoir."</p> <p>Je savais que mes amis avaient eu, au cours de l'année, le chagrin de perdre une fille de dix-huit ans, qui s'était tuée en tombant de cheval. Je les plaignais; je souhaitais les voir; j'acceptai.</p> <p>Je fus heureux de la présence de Lord Tullock. Le Général Bramble peut rester pendant trois heures au coin du feu en fumant sa pipe, sans dire un seul mot. Mrs. Bramble brode ou travaille, elle aussi en silence. Le visage de Mrs. Bramble était sillonné par les larmes, mais elle ne me parla pas de son deuil. Le premier soir seulement, quand je montai me coucher elle s'arrêta un instant devant la chambre qui précédait la mienne, me dit: "C'était sa chambre", et détourna la tête.</p>					
---	--	--	--	--	--

89.	La fille des Bramble, en quelles circonstances est-elle morte?	Elle s'est tuée en tombant du cheval.	Elle s'est tuée en tombant dans l'escalier.	Elle s'est tuée dans un accident de voiture.	Elle est morte d'une crise cardiaque.
90.	Où se trouvait la chambre de l'auteur?	A côté de l'ancienne chambre de la jeune fille.	Dans le grenier.	En face de l'ancienne chambre de la jeune fille.	Près de l'entrée.

№	Savol	A	B	C	D
91.	Quelle phrase n'appartient pas au texte?	Lord Tullock a invité les Bramble chez soi pour fêter Noël.	La fille de dix-huit ans des Bramble s'était tuée.	Le général Bramble a dit qu'il serait ennuyé avec son beau-frère.	L'auteur a accepté la proposition du général Bramble parce qu'il voulait les voir.
92.	Choisissez la question à laquelle il n'y a pas de réponse dans le texte?	Pourquoi Mrs. Bramble parlait sans cesse de sa fille?	Pourquoi le général Bramble a invité son ami chez eux?	A quel âge la fille des Bramble s'était tuée?	Pourquoi l'auteur était heureux de la présence de Lord Tullock?

<p>Lisez le texte et faites les quatre devoirs d'après celui-ci.</p> <p>Après la soirée j'ai décidé d'aller me coucher. J'avais si chaud que je ne pouvais dormir. Bientôt, dans la chambre voisine, un coucou sonna minuit. J'étais fatigué, un peu nerveux, mais en même temps il me semblait que cette insomnie était agréable. J'entendis le coucou sonner toutes les heures jusqu'à l'aube, où je m'endormis enfin.</p> <p>Quand je descendis le lendemain matin pour le petit déjeuner, un peu en retard, M-me Bramble me demanda comment j'avais passé la nuit.</p> <p>— Pour être tout à fait franc, dis-je, j'ai peu dormi. Mais cela n'était pas désagréable et le coucou m'a tenu compagnie.</p> <p>— Comment? dit le Général brusquement. Vous avez entendu un coucou?</p> <p>— Mais oui, dis-je, surpris par le ton sur lequel il avait prononcé cette phrase.</p> <p>— Alors je vis que M-me Bramble me regardait avec une attention émue, les yeux pleins de larmes.</p> <p>— Je dois vous expliquer, dit-elle. Dans la chambre voisine de la vôtre, il y a en effet un coucou. Ma fille l'avait reçu en cadeau alors qu'elle était tout enfant, et elle le remontait elle-même chaque soir. Depuis sa mort personne n'a plus touché à son coucou, il restait silencieux, mais hier soir, voyez-vous, c'était la nuit de Noël.</p>					
---	--	--	--	--	--

93.	L'auteur, qu'est-ce qu'il a entendu pendant la nuit?	Il a entendu sonner le coucou.	Il a entendu ses amis parler.	Il a entendu M-me Bramble pleurer.	Il a entendu le vent souffler.
94.	L'auteur comment a-t-il passé la nuit?	Il n'a pas bien dormi.	Il a dormi à poings fermés.	Il n'a pas voulu dormir.	Il a bien dormi jusqu'à minuit.
95.	Quelle phrase n'appartient pas au texte?	Le Général a demandé à l'auteur comment il avait passé la nuit.	Au commencement l'auteur n'a pas pu dormir car il avait eu chaud.	Le lendemain matin l'auteur est descendu un peu tard pour le petit déjeuner.	Le coucou était offert à la fille des Bramble quand elle avait été tout enfant.
96.	Choisissez la question il n'y a pas de réponse dans le texte?	Comment était morte la fille des Bramble?	Pourquoi l'auteur n'a pu pas dormir?	Qu'est-ce que l'auteur a entendu jusqu'à l'aube?	Pourquoi M-me Bramble regardait l'auteur avec une attention émue?

<p>Lisez le texte et faites les quatre devoirs d'après celui-ci.</p> <p>Le peintre Pierre Douche achevait une nature morte, fleurs dans un pot de pharmacie, quand le romancier Paul-Emile Glaise entra dans l'atelier. Il observa pendant quelques minutes son ami qui travaillait, puis dit fortement: "Non".</p> <p>L'autre, surpris, leva la tête, et s'arrêta de polir le pot.</p> <p>— Non! reprit Glaise. Non! Tu n'arriveras jamais. Tu as du métier, tu as du talent, tu es honnête. Mais ta peinture est plate. Dans un salon de cinq mille toiles, rien n'arrête devant les tiennes le promeneur endormi... Et c'est dommage.</p> <p>— Pourquoi? soupira l'honnête Douche. Je fais ce que je vois; j'essaie d'exprimer ce que je sens.</p> <p>— Il s'agit bien de ça, mon pauvre ami. Il y a plus de tableaux que d'acheteurs, et plus d'imbéciles que de connaisseurs. Le seul moyen de réveiller les imbéciles, c'est de faire des choses énormes. Annonce que tu vas peindre au Pôle Nord. Fonde une école. Mélange des mots savants: extériorisation, dynamisme, subconscient. Compose des manifestes. Nie le mouvement, ou le repos, le blanc, ou le noir, le cercle, ou le carré. Invente la peinture cylindrique, la peinture à quatre dimensions.</p>					
--	--	--	--	--	--

97.	Selon l'opinion de Paul-Emile Glaise, pourquoi son ami n'a-t-il pas de succès?	Sa peinture est plate.	Il ne sait pas vendre ses tableaux.	Il appartient à une école progressiste.	Il ne sait pas colorer.
98.	Paul-Emile Glaise, qu'a-t-il proposé à son ami?	De faire des choses énormes.	De devenir agent de police.	De renoncer à la peinture	De partir à la campagne.
99.	Quelle phrase n'appartient pas au texte?	Le romancier a conseillé à son ami de fonder un musée de peinture.	Le romancier Paul-Emile Glaise a trouvé que la peinture de son ami était plate.	Pierre Douche faisait ce qu'il voyait, il exprimait ce qu'il sentait.	Paul-Emile Glaise a dit qu'il y avait plus de tableaux que d'acheteurs.
100.	Choisissez la question à laquelle il n'y a pas de réponse dans le texte?	Pourquoi le romancier a crié "Oui" en observant le travail de son ami?	Quel tableau achevait Pierre Douche quand son ami entra dans son atelier?	Qu'est-ce que le romancier a dit en observant son ami qui travaillait?	Pierre Douche, quelles peintures devait-il inventer?

“Qoshining yoyi chekilmish zulfi chavgonig'acha...”

Million yillar avval so'nib ketgan yulduzlardan bizga hamon yorug'lik kelib turganidek, tarixda o'tgan buyuk ajdodlarimiz ma'rifat nurlaridan hanuzgacha bahramandmiz. Ular qoldirib ketgan ma'naviy meros bizni doim hayratga soladi. E'tiborlisi, ulug'larning qimmatli fikrlari qaysi zamonda aytilganidan qat'i nazar, o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Alisher Navoiy hazratlarining hikmatlaridan namuna:

*Ilmni kim vositayi joh etar,
O'zini-yu xalqini gumroh etar.*

Ildan tubanlik yo'lida foydalanuvchilar o'zini va xalqni gumroh kimsalarga aylantiradi. Bu gaplar bugungi kunda ham juda dolzarb. Ildan boylik orttirish yo'lida foydalanuvchilar savodsiz va johil odamlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Yoshlarimiz ma'naviyatiga tahdid solayotgan turli zararli oqimlar ularni noto'g'ri yo'lga boshlab, tinch va farovon hayotimizga, jamiyatimizga xavf tug'diryapti. Shu emasmi axir ilmni o'z manfaatlarini yo'lga burib, kasbini sevmaydigan mutaxassislarni tayyorlab, kelajagimizni xavf ostiga solish odati. Biz hayotda neki qilsak, o'zimiz uchun qilgan bo'lamiz, ya'ni o'zimizga qaytadi. Zero, hazrat Navoiy aytganidek:

*Naf'ing agar xalqqa beshakdurur,
Bilki, bu naf' o'zungga ko'prakdurur.*

So'zlar izohi — Navoiy tilining eng murakkab va eng qiziqarli sohasi. Bu

borada olimlarimizning ko'pgina ilmiy tadqiqotlari, risolalari e'lon qilingan.

Navoiy asarlaridagi so'zlar izohida bir hodisa bizning e'tiborimizni o'ziga jalb etdi. U ham bo'lsa bir xil shakldagi so'zlarning zid ma'nolarda qo'llanishi. Fikrimizni to'laroq tushuntirish uchun misollarga murojaat qilamiz:

*Ey, husnungga zarroti jahon
ichra tajallo,
Mazhar senga ashyo,
Sen lutf bila kavnu makon
ichra mavlo,
Olam senga mavlo.*

Shoirning mahoratini qarangki, “mavlo” so'zini bir misrada bir-biriga zid ma'nolari bilan qo'llaydi. Baytning birinchi misrasi shunday izohlanadi: Ey husnidan zarralar jahon ichra jilvalanuvchi, sening jamoling dunyodagi barcha narsada aks etadi. Baytning ikkinchi misrasini ikki qismga bo'lib izohlaymiz. Birinchi qismda “mavlo” so'zi *sohib, xoja, hokim* ma'nosida kelgan, ya'ni: Sen iltifot ila bu dunyoda hokimsan, sohibsan. Misraning

ikkinchi qismida bu so'z *qul, banda* ma'nosida kelgan: Olam — senga qul. Mumtoz adabiyotda dunyodagi har bir jismda Ollohning aksi bo'ladi, degan tushuncha bor. Bu baytda biz shu mazmuni uchratamiz.

Ma'lumki, “*chekmoq*” so'zi mumtoz adabiyotda serma'noligi bilan mashhur. Uning ma'nolari orasida ham bir-biriga zid keluvchilari bor. Masalan, *uzmoq* ma'nosini olsak:

*Soching kufrida o'lsam, qabrim
uzra qo'yma xirqamni,
Chekib har torini bir barhaman
beliga zunnor et.*

Ya'ni sening sochingga ishtiyoqmand bo'lib, soching ishqida o'lsam, kiyimimni qabrim ustiga qo'yma, qoldirma, uni parcha-parcha qilib, braxmanga(oshiqqa) ber, u beliga belbog' qilsin.

Endi uzmoqqa antonim bo'lgan tutashmoq ma'nosini olamiz:

*Qoshining yoyi chekilmish zulfi
chavgonig'acha,
Zulfi chavgoni dog'i go'yi
zanaxdonig'acha.*

Qoshning yoy shaklida bo'lishi Sharqda go'zallik belgisi hisoblangan. Baytda ma'shuqaning go'zalligini ifodalash uchun bu belgidan foydalanilgan. Ya'ni qoshining yoyi zulfiga, undan iyagiga tutashib ketgan.

Keling, bu so'z *yechmoq* ma'nosida qo'llangan baytni ko'rib chiqamiz:

*Qildi ashkimni shafaqqun
hajr bepoyon tuni,
Xullasin chek tongning, ey
gardunki, qon bo'lg'usidur.*

Ya'ni hijronning bepoyon tuni ko'zyoshlarimni qizil tusga kiritdi. Tezroq tong otsin, bo'lmasa hammayoq qonga to'lib ketadi.

Yuqoridagi ma'noning antonimi — bog'lamoq:


*Aytdim, boshimni fitrokingga
chek, ey shahsuvor,
Dedi, bosh asrardek ermas
tezlikdan markabim.*

Baytning mazmuni shunday: Ayt-dimki, boshimni egaringga bog'lab ket, ey chavandoz. U esa: “Ulovim shunchalik tez ketyaptiki, o'z boshimni ham bazo'r asrayapman”, dedi.

Biz keltirgan misollardan ko'rinadiki, Navoiy bobomiz ulug' o'zbek tilimizning betakror go'zalligini o'z ijodi bilan isbotlab bergan. Tilimizni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodga yetkazish — o'z qo'limizda.

Iroda ESHONXONOVA,
Sirg'ali tumanidagi
32-maktabning
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid boshqotirma



1. Hazrat Navoiyning so'nggi asari.
2. Navoiy hokimlik qilgan viloyat.
3. Asardagi hikoya.
4. Dostonda keltirilgan masal.
5. 6-maqolat ..., ..., ... maqtovi haqida.
6. Shoir xayolini band etgan asar.
7. Shoir xatlari jamlanmasi.
8. Agar nutq noma'qul bo'lsa ofatidir.
9. Shoirning “Munajat” kuyi bilan aytilgan g'azali.
10. Shoirning ustози.
11. Navoiy qurdirgan madrasa.
12. Husayn Boyqaroga bag'ishlangan asar.
13. Navoiyning tarixchi shogirdi.

Tuzuvchi:
Gulsinoy MA'MUROVA,
Rishton tumanidagi
18-maktab o'qituvchisi

Tarix qumliklari

tagida qolayotgan Denov

Akademik G.A.Pugachenkova oʻtgan asrning oltmishinchi yillarida chop etilgan "Xolchayon" nomli kitobida miloddan avvalgi III-I asrlarda taraqqiy etgan, hattoki gullab-yashnagan manzil, bugungi ibora bilan aytganda, bir shahar haqida maʼlumot beradi va bu shaharning nomi Xolchayon deb ataydi.

Olimlar Xolchayonning quyirogʻida, Surxon daryosining Qizilsuv daryosi bilan qoʻshilgan joyidan "Budrach" degan qadimiy shahar qoldiqlarini topishdi. Mutaassislar "Budrach"ni Buddaga nisbat beradi. Demak, miloddan ilgari bu oʻlkalarda buddaviylik alohida mavqega ega boʻlgan. Bu manzildan Qizilsuv daryosi boʻylab yuqoriga yursangiz, Denov tuproq-qoʻrgʻonining poyidan chiqasiz. Tuproq-qoʻrgʻon milodning III-IV asrlarda barpo etilganini taxmin qiladilar. Ikki daryo oraligʻidagi ana shu uch nuqtani birlashtirangiz, katta uchburchak hosil boʻladi. V.V.Bartold qadimgi, yaʼni miloddan avvalgi yillarda tashkil topgan Chagʻoniyon davlatining poytaxti ana shu uchburchakning ichida joylashgan, deydi.

XX asrning 60-yillari Xolchayon qisman tadqiq qilindi — miloddan ilgari tarixiy obidalarining ustiga hozirgi aholi turarjoylari qurilgan. Budrach xarobalari ham ekinzorlarga aylantirilgan. XX asr oxirlarida tashqi tomoni yer bilan yakson boʻlgan Tuproq-qoʻrgʻon esa deyarli tadqiq qilinmagan. Bir yarim ming yil ilgari qurilgan taxmin qilingan va tarixiy obida oʻtmishga nafrat tuygʻusini uygʻotish uchun uzoq yillar mol bozori qilib qoʻyildi. Tuprogʻidan esa hozir ham loysuvoqda foydalanilmoqda...

Butun umrini Dalvarzintepa bilan Xolchayonni oʻrganishga bagʻishlagan akademik Eduard Rtveldadze bilan arxeolog Bahodir Turgʻunov Denovning oʻtmishi miloddan avvalgi III asrga borib taqalishi, balki undan ham qadimiyroq ekanini dalillar bilan isbotlab berishdi.

Shu yerda tarixi milodning boshlariga borib taqaluvchi Budrach shahri, uning qachonlardir mavjud boʻlganini isbotlovchi Budrachtepa haqida keng mulohaza qilib koʻrsak. 1991-yili Tokioda nashr etilgan "Древности Южного Узбекистана" ("Janubiy Oʻzbekistonning oʻtmishi") nomli maqolada Budrachtepa haqida quyidagi maʼlumotlarga koʻzimiz tushadi: "Budrachtepa — qadimiy shahar xarobalari Denov tumanida joylashgan. Maydoni salkam 120 gektar. Unga Zahartepa, Oqmozortepa va Dunyotepa deb nomlangan tepaliklar kiradi. Budrachtepa oʻrta asrlarda "Chagʻoniyon" deb atalib, podsho saroyi, shahriston va rabotdan iborat boʻlgan. Budrachtepa Afrosiyob devoriy rasmlaridagi soʻgʻdcha yozuvlarda "Chagʻoniyon", arab manbalarida "Sagʻoniyon" deb atalgan. Ilk bor

1960-yili Budrachtepa Oʻzbekiston sanʼatshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan, 1960-yildan beri shu ekspeditsiya ishlaydi. Arxeologik qazishmalardan maʼlum boʻlishicha, Budrachtepa oʻz boshidan bir necha tarixiy bosqichlarni kechirgan:

1) miloddan avvalgi I asr — milodiy I asrlarda Oqmozortepa va Dunyotepa oʻrinlarida kichkina qishloq barpo etilgan;

2) milodiy I-III asrlarda shahar hududi 10 gektarga yetib, Oqmozortepa shoh saroyiga aylantirilib, 10 metr qalinlikdagi mudofaa devori bilan oʻralgan, Dunyotepa esa katta manzilgoh boʻlgan;

3) milodiy III-V asr boshlarida shahar inqirozga yuz tutgan, mudofaa devorlari xarobaga aylangan;

4) V asr oxiri va VIII asr boshlarida shahar yana tiklandi va 3 qismdan: shoh saroyi, shahriston va rabotdan tashkil topgan. Shahriston atrofidagi devorning uzunligi 3 km ga yetgan;

5) VIII-IX asrlarda, arab istilosidan soʻng shahar mavjud boʻlib, uning hajmi biroz kichik boʻlgan;

6) X-XI asrlar birinchi yarmida shahar taraqqiy etgan. Shaharning umumiy maydoni 6 km² ga yetgan;

7) XI-XII asr oʻrtalarida shahar saljuqiylar sultoni Alp Arslon tomonidan zabt etilgan. Ashyoviy dalillar shu paytda Dunyotepada hayot toʻxtaganini va shahristonning ham mavqeyi pasayganini koʻrsatdi;

8) XII asr oʻrtasi — XIII-asr boshlarida shahar yana tiklangan;

9) XIII asr boshida shahar moʻgʻul istilochilari tomonidan vayron qilinib, XV asr boshlarida esa shahristonda hayot tamomila toʻxtagan, Dunyotepada hayot qisman kechgan, Oqmozortepa esa pishiqgʻishtlar bilan tiklangan qabristonga aylantirilgan. Shahar oʻrni rabotdan sharqda — Gʻishli degan joyda paydo boʻlgan, u yerda madaniy qatlam 4-5 metrni tashkil qiladi;

10) XVI asr boshlarida shayboniyalar tomonidan shahar batamom vayron qilingan. Chagʻoniyonning poytaxti endi Budrachtepadan 10 km uzoqlikda joylashgan "Dehinav"ga, hozirgi Denovga koʻchgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida har bir davr uchun kerakli ashyoviy dalillar topilgan.

Ular orasida sopol idish-tovoqdar, haykaltar, Kushon podsholarining mis tangalari va soʻnggi davrdagi kumush va jez tangalari, toshdan va qimmatbaho ashyolardan tayyorlangan taqinchoqlar, shisha idishlar, temir va

jezdan tayyorlangan qurol-aslahalar va uy-roʻzgʻor buyumlari koʻplab topilgan".

Boshqa manbalarda esa Budrach shahrining tarixi Kushonlar davlatiga borib taqalishi haqidagi maʼlumotlarga koʻzingiz "Eramizning I asri birinchi yarmida yuechjilar davlati amirlklaridan biri Kushonning yuksalishi oqibatida yuzaga kelgan Kushon davlati madaniyatini oʻrganar ekanimiz, Surxondaryo viloyatining Denov shahri paxta dalalarining birida qachonlardir yirik shahar boʻlgan Xolchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolganini, shaharlarning paydo boʻlishi miloddan avvalgi I mingyillikning oʻrtalariga toʻgʻri kelganini koʻrishimiz mumkin.

Surxon vohasining Kushon davri shaharlari maʼmuriy, iqtisodiy markaz boʻlish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham oʻtagan (Koʻhna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Zoʻrmola, Ayritom va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalari). Kushonlar hukmronligining ilk bosqichidayoq koʻhna dunyo davlat va xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bogʻlab turgan qitʼalararo savdo yoʻli, yaʼni Buyuk ipak yoʻli toʻliq shakllangan va bu xalqaro savdoda Kushon davlati ham muhim oʻrin egallagan.


Dalvarzintepa shahristoni yaqinidagi Budda ibodatxonasi qoldiqlari, Budda boshi, Bodisatvaning mahobatli haykali topilganidan soʻng jahon xalqlari eʼtibori shu topidilqlarga qaratildi. Yaponiyanning Nara shahrida ana shu topidilqlar koʻrgazmasi namoyish etilganda kunchiqar davlat fuqarolari lol-u hayron qoldilar. Shuningdek, Dalvarzintepaga yaqin joydagi Xolchayon, Budrach shaharlari topidilqlaridagi Budda diniga doir ashyolar ularning hayratini yanada oshirdi.

Dalvarzintepa, Xolchayon va Budrach topidilqlariga yaponlarning qiziqishi Budda ibodatxonasi, Budda boshi va Bodisatvaning ulkan haykali tufayliga ortgani yoʻq. Balki boshqa namunalar ham yaponlarning diqqatini Oʻzbekistonga, xususan, Surxondaryoga qaratdi. Ular bu yerlardagi xarobalarda Buddaga oid yana qancha-qancha maʼlumotlar topilishiga umid bogʻladilar. 2003-2006-yillari Surxondaryoga Yaponiya, Rossiya, Fransiya va Germaniya qadimshunoslari kelib, Dalvarzintepa, Xolchayon, Budrach, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa va boshqa obidalarini qazishni davom ettirishdi hamda koʻpyillik tadqiqotlar "tashxis"ini qoʻyishdi". Yuqoridagi maʼlumotlarni koʻzdan kechirar ekanimiz, tarixi milodning boshlariga borib taqaluvchi Budrach shahri (hozirgi Denov) haqida maʼlumotlar baʼzi manbalarda qisman saqlanib qolgan, arxeologlar tomonidan esa juda ham kam oʻrganilganiga amin boʻlamiz.

Oybek OʻRUNOV,
Denov tumanidagi
27-maktab oʻqituvchisi

☾ Kamina nashriyotda musahhah, yaʼni imloviy xatolarni tuzatuvchi xodim boʻlib ishlayotganim bois koʻpchilik: "Xatosiz yozish uchun nima qilish kerak?" deb soʻraydi. Keling, shu savolga qisqacha javob bersak.

Xatosiz yozish uchun nima qilish kerak?



Imloviy xatolarsiz yozish uchun ikkita narsa zarur: eʼtibor va imlo qoidalarini bilish.

Koʻpchilik nima yozayotganiga eʼtibor qilmagani sababli xato yozishga oʻrganib qolgan. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi koʻpchilik foydalanuvchilar oʻzlaricha "qoida" kashf qilgan: "Internetda imloviy xatolar bilan yozaversa boʻladi". Boʻlmagan gap! Ziyoli kishi har qayerda imlo qoidalariga amal qilib, xatolarsiz yozadi.

Demak, qayerda nima yozayotganimizdan qatʼi nazar, imlo qoidalariga muvofiq ravishda yozishga harakat qilishimiz kerak. Har bir harf, har bir nuqta-vergulga ahamiyat berish lozim. Toʻgʻri, boshida bu sizga biroz mushkullik qiladi. Lekin doimiy ravishda toʻgʻri yozishga harakat qilaversangiz, oʻz-oʻzidan eʼtibor qiladigan, buning uchun alohida kuch sarflamaydigan boʻlib qolasiz. Yaʼni sizda toʻgʻri yozishga harakat qilish refleksi hosil boʻladi. Endi imloviy xatolar bilan yozishni oʻzingizga ep koʻrmaysiz, mabodo xato qilib qoʻyganingizni koʻrsangiz, darhol toʻgʻrilaysiz. Qarang, qanday yaxshi. Odamlar sizning yozganingizni oʻqib tartib-intizomli, madaniyatli, ziyoli kishi ekan deb xulosa qiladi. Biror joyga ishga kirmoqchi boʻlganingizda imkon qadar imloviy xatolarsiz yozishga harakat qilasiz-ku, mana shunga boshqa vaqtlarda ham amal qilib, koʻnikma hozirlab borish kerak.

Imloviy xatolarsiz yozish uchun bizga lozim boʻlgan ikkinchi narsa bu — imlo qoidalarini bilish. Har bir tilning oʻz yozuv qoidalari bor. Xususan, oʻzbek tilining ham. Siz bu qoidalarga amal qilgan holda yozar ekaningiz, jonajon tilimizning hurmatini oʻz oʻrniga koʻrgan boʻlasiz.

Oʻzbek tilining imlo qoidalarini tilga oid adabiyotlardan oʻrganishimiz mumkin. Bu qoidalar juda koʻp emas. Quyidagilarni bilgan kishi yozuvda ancha (balki toʻliq) xatosiz yozishi mumkin:

- tinish belgilarini oʻz oʻrnida qoʻllash;
- bosh harflar imlosi;
- qoʻshib yozish, ajratib yozish;
- chiziqcha bilan yozish;
- asos va qoʻshimchalar imlosi;
- "h" va "x" ishtirok etgan soʻzlarni eslab qolish.

Mazkur qoidalarning qaysi birida xato qilsa ham, soʻz maʼnosi oʻzgarib ketishi mumkin. Natijada subhatdoshingizga fikringizni toʻgʻri va toʻliq yetkazib bera olmasligingiz yoki u sizni toʻgʻri tushunsa ham xato yozganingizni koʻrib, ustingizdan kulishi mumkin.

Koʻp oʻqishning ham toʻgʻri yozishni oʻrganishda ahamiyati katta. Bu bilan biz ham eʼtiborimizni orttirariz, ham imlo qoidalarini oʻrganamiz. Bunda, albatta, imlo qoidalariga muvofiq ravishda yozilgan maʼlumot boʻlishi kerak. Afsuski, soʻnggi vaqtlarda qoʻpol imloviy xatolari talaygina boʻlgan kitob, gazeta-jumallar uchrab turibdi. Shuning uchun ishonchli nashriyotlarda chop qilingan kitob, gazetalarni oʻqib, toʻgʻri yozish boʻyicha malakamizni oshirishimiz mumkin. Chunki koʻp oʻqish orqali yozuvlar koʻzda muhrlanib qoladi. Natijada yozayotganingizda qanday yozsa, toʻgʻri boʻlishi koʻz oldingizga kelaveradi.

Gʻiyosiddin YUSUF,
"Hilolnashr" nashriyotining
bosh musahhahi

Latipova Nodira Muxtarjanovnaning 22.00.02 — Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilish" mavzusidagi (sotsiologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.12.2018.S.23.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 18-iyul kuni soat 12:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 232-60-47, 0(371)239-17-83; e-mail: info@dba.uz

Sobirova Laylo Baxramovnaning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qaddi-qomat buzilishining oldini olishda maxsus jismoniy mashqlar majmuyidan foydalanish samaradorligi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 16-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70)-717-17-79, 717-27-27, (0-370) 717-17-76;
e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Rosilov Mansur Sirgiyevichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida rux xlorid olish texnologiyasini yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 9:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Pulatov Farxod Azadovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Sport o'yinlari bilan shug'ullanuvchi 7–10 yoshli bolalarda o'naqay va chapaqay harakatlarni simmetrik tartibda shakllantirish ustuvorligi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped28.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 21-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Nurutdinova Feruza Mudivonnaning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Apis Mellifera asalariidan xitin-xitozan ajratib olish va ularning fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03.30.12.2019.T.78.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.
Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Ulmasov Tulkun Usmanovichning 02.00.07 — Kompozitsion, lok-bo'yoq va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi va 05.02.01 — Mashinasozlikda materialshunoslik. Quyumchilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi (materialshunoslik va metallurgiya yo'nalishlari, texnika fanlari) ixtisosliklari bo'yicha "Sochiluvchan polimerlar va organomineral to'ldiruvchilarni aralashtirish va ular asosida mashinasozlik uchun kompozitsion materiallar va detallar olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va taraqqiyot" DUK huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 16-iyul kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7-"A" uy.
Tel/faks: (71) 246-39-28, 227-12-73; e-mail: fan_va_taraqqiyot@mail.ru

Islomova Yulduz O'rolovnaning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Karbazol va ftalimid hosilalarini olish texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 23-iyul kuni soat 9:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'robzor" mahallasi.
Tel/faks: (71) 199-22-43, 965-77-16; e-mail: gup_tniixt@mail.ru

Yusupov Muzafar Orifjonovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Azot va fosfor saqlovchi ftalot-sianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish va tadqiq qilish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 23-iyul kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'robzor" mahallasi.
Tel/faks: (71) 199-22-43, 965-77-16; e-mail: gup_tniixt@mail.ru

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va Zoom dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

E'LON

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshida tashkil etilgan Kasbiy qayta tayyorlash kursiga pedagogik va nopedagogik ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni (chizmachilik, tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, YChT fanlaridan tashqari) barcha fan yo'nalishlari bo'yicha o'qishga taklif qiladi.

O'qishga kirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- diplom ilovasi bilan (asli);
- pasport nusxasi (pasport shaxsan ko'rsatiladi);
- mehnat daftarchasidan ko'chirma;
- ish joyidan ma'lumotnoma;
- 6 dona 3x4 o'lchamdagi rasm.



**Ma'lumot uchun telefonlar:
(90) 931-60-73, (97) 700-28-73.**

Angren shahridagi ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga 2020/2021-o'quv yili uchun 7-sinfga iqtidorli o'quvchilar tanlov asosida — matematika ta'lim yo'nalishiga 30 nafar, ingliz tili yo'nalishiga 30 nafar hamda 8–11-sinflarning bo'sh o'rinlariga Davlat test markazi tomonidan test sinovlari asosida qabul qilinadi

Talabgor iqtidorli o'quvchilarning hujjatlari joriy yilning 2020-yil 1-iyulidan 20-iyulgacha onlayn tarzda qabul qilinadi.

Maktab-internat manzili: Toshkent viloyati, Angren shahri, 48-daha, 1-"b" uy.

**Murojaat uchun telefonlar:
(94) 367-34-88, 366-25-12, (99) 817-24-91.**

Chirchiq davlat pedagogika instituti jamoasi institutning o'quv-uslubiy boshqarmasi uslubchisi, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini o'qituvchisi **Ibrohim ESHMANOV**ning vafoti munosabati bilan uning oila a'zolariga ta'ziya izhor qiladi.

Ko'ngillarni yorituvchi nur

Asrimizda axborot texnologiyalari rivojlanib, barcha sohalarni (jumladan, pandemiya davrida ta'lim tizimini ham) qamrab oldi. Texnika taraqqiyoti shu darajaga yetdiki, bugungi kunda har qanday kashfiyot odatiy hol sifatida qabul qilinadi. Inson tomonidan yaratilgan barcha kashfiyotlarning ichida shunday bir mo'jiza borki, agar u bo'lmaganida edi, taraqqiyot bu darajaga yetmagan, bugungi kunimiz bu qadar yorqin bo'lmagandi. Bu mo'jiza insonning sodiq do'sti kitobdir. Darhaqiqat, qancha zamonlar o'tmasin u o'z mavqeyini yo'qotmadi.



Kitobning ham o'z tarixi bor. Antik davrlarda kitob uzun papirus barglarini o'ram-o'ram qilib tayyorlangan. Varaqning yon tomonlariga bittadan chiviq mahkamlab qo'yilgan. O'qilgan sari bir chiviqdan ikkinchisiga o'rab borilgan. Kitob pergamentga yozib boshlanganda varaqlar xuddi daftar kabi tikilgan va muqovalangan.

Manuskriptlar (lotincha "qo'l" va "yozaman" degan ma'noni anglatadi). XV asr o'rtalarigacha kitoblar qog'ozga yoki pergamentga g'oz patlari bilan bejirim qilib qo'lda yozilgan. Ko'pincha kitoblar lotin yoki qadimgi yunon tilida bo'lgan. 1539-yilda Gutenberg tomonidan kitob bosish kashf etilgach "jonli til"dagi kitoblar paydo bo'ldi.

Kitob haqida har qancha gapirish, uning o'quvchi uchun foydaliligi sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin do'st, insonni ma'naviy kamolotga yetaklovchi eng zarur hamrohdur. Donolar kitob, kitob mutolaa qilish to'g'risida fikr bildirar ekan, unga oshno qalbag hech qachon qabohat in qurmasligini alohida ta'kidlaydi. Ko'pchilik daholarning hayot faoliyatiga nazar tashlasangiz ham kitobning o'ni beqiyos ekanligini, ularning bolalikdan kitobga mehr qo'yishlariga ota-onasi sababchi ekanligini bilib olishingiz mumkin. Kitobga mehr bolalikdan oilada, so'ngra maktabda boshlang'ich sinflarda, sinfdan tashqari o'qish darslarida, 5-11-sinflarda adabiyot darslarida mustaqil o'qilgan asarlar haqida suhbat darslarida davom-

li ravishda bosqichma-bosqich kuchaytirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

XIX asr o'rtalarida Buxoro madrasalari faoliyati bilan tanishgan N.Xanikovning guvohlik berishicha, madrasaning to'liq kursini o'qib tugatish uchun tolibdan taxminan 137 ta kitobni o'qib chiqish talab etilgan.

Talabalik davrlarimda sosiologiya fani ustozimning "Men umuman it boqmayman va uyimni qulflamayman. Uyimga o'g'ri kirsin mayli, kitoblarimni titib ko'rsin. Shundan ham bir narsa oladi..." deb aytgan gapini juda ko'p eslayman. Ustozning hazil-chin aytgan gapida bir olam ma'no bor ekan.

Kitob — insonning ichki olamini nur kabi yoritadi. Olg'a intilish lozimligini, hayotni sevishni o'rgatadi. Shunday ekan bolajonlarimizga kitoblar sovg'a qilaylik, kitobni sevishga o'rgataylik. Zeroki, quyosh zaminni yoritgan va isitganidek, kitob ham yurtimizning ertasi bo'lgan bolajonlarimizning beg'ubor qalbini, ongi-yu shuurini nur misoli yoritib va isitib tursin.

Umida UMIRQULOVA,
Qumqo'rg'on tumanidagi
46-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Bobo-buvilarimiz bejiz "Vaqt — shamolday tez. Oradan oylar, yillar qanday o'tib ketganini sezmay ham qolasan", deya aytmas ekan. Oliy o'quv yurtlari uchun davlat imtihonlari yaqinlashmoqda. Tunni tun, kunni kun demay, tinimsiz o'qigan abituriyentlar, Xudo xohlarsa, albatta, talabalik baxtiga muvassar bo'ladi.

Orzular maqsadga aylansin

Maktabni tamomlaganimga ham bir yildan oshdi. Oллоhga shukur o'tgan yili O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga o'qishga qabul qilindim. Juda ko'p maktabdoshlarim, opa-singillarim universitetimizga hujjat topshirib, kelajakda yetuk jurnalist bo'lish maqsadida tinmay harakat qilmoqda. Ba'zida mendan ham maslahat so'rab turishadi. Qo'lmand kelganicha yordam berishga harakat qilyapman. Ularni ko'rib, o'zimning abituriyentlik davrim xayolmandan o'tadi. Ijodiy imtihonga onam bilan birga borgan edik. Yo'l bo'yi "O'qishga kira olarmikanman? Yiqilsam nima qilaman? Yo'q! Albatta shu yil talaba bo'laman!", deya tinmay o'zimga o'zim gapirib, savollar berib kelganim, ilk marotaba O'zJOKU darvozasiidan kirayotganimga hayajon, "Oллоhim, o'zing qo'lla, ota-onamning ishonchini oqlay", deya so'rganlarim hech qachon esimdan chiqmasa kerak.



Universitetdagi birinchi kunimiz menda juda yaxshi taassurot qoldirgan edi. Ustozimiz talabaga murojaat qilgandek emas, bizga o'z farzandlaridek muomala qilgandi. Rektorimiz, dekani-miz, ustozlar, barcha-barchamiz shunchaki bir universitetning xodimlari, talabalari emas, balki katta bir ahil oilaga aylanib ham ketdik. Men juda baxtliman! Bugungi kundagi abituriyentlarga ham, eng avvalo chin ko'ngildan harakat qilishlari va o'qishlarini maslahat beraman. Mehnat qil-yapsizmi? O'qib-izlanyapsizmi? Bilingki, mehnatlaringiz hech qachon javobsiz qolmaydi. Doimo izlanishda va o'rganishda bo'ling. Abituriyentlar, biz bunga ishonamiz, Xudo xohlarsa, talaba bo'lasiz!

Nozima NAZIROVA,
O'zJOKU talabasi

O'qituvchi tarjima qilgan roman

"Skarletning yanoqlari keng, iyagi, xushbichim yuzi beixtiyor o'ziga tortardi. Ayniqsa, qop-qora kipriklar bilan o'ralgan biroz qiyiq, zangori tiniq ko'zlari...". Amerikalik yozuvchi Margaret Mitchell o'zining dunyoga mashhur "Shamollarda qolgan hislarim" romani qahramoni Skarletni shunday tasvirlaydi. Bizga kinosi bilan tanish "Shamollarda qolgan hislarim" romani yozilgach, dastlabki uch yil ichida Amerikada 48 marta nashr etilgan. Amerika adabiyotida bu asarni Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romaniga tenglashtirishadi.



1936-yili nashr etilgan roman asosida 1939-yili film suratga olingach, uning shuhrati adabiyotdan Hollivudga ko'chdi. "Shamollarda qolgan hislarim" filmi dunyoning eng ko'p daromad keltirgan filmi bo'lib qoldi. Yillar o'tib undan o'zgan yagona film "Titanik" bo'ldi. Asarning ikkinchi qismi bo'lgan "Skarlet" romani asosida esa miniserial suratga olingan.

Asarning bunalchik mashhurlikka erishishi sababi uning chuqur falsafiyligi yoki unda tarixiy haqiqatlarning ochilinishi emas, balki ayol qalbining osoyishtalikka ham, urush yillarida ham tilsimli bo'lib qolaverishi, uning o'zi ham bilmagan murakkabliklari asarda yaqqol tasvirlab berilgani o'quvchilarni o'ziga rom qilgan deyish mumkin. Asar bosh qahra-

moniga adabiy tanqidchilardan biri "XX asr Amerika adabiyotida Skarlet O'Xaradan jiliroq xarakter yo'q" deya baho bergan edi.

Asarning o'zbek tilidagi nusxasi bilan tanishar ekanman, tarjimaning ravonligi, ifodalarning yaqqolligi, tasvirning tiniqligi e'tiborimni tortdi. Qiziqib ko'rsam, tarjimon Rohila Axtamova asli nafaqadagi o'qituvchi bo'lib, uzoq yillar Samarqand viloyati Payariq tumanidagi maktablarda rus tili va adabiyotidan dars bergan ekan. O'z fani bilan birga o'zbek tilining ham nozik qiralarini his qila olgan pedagogning tarjimasi o'quvchini o'ziga maftun etadi. Roman ingliz yoki rus tilida emas, aynan o'zbek tilida yozilgandek o'qiladi. Bu esa, shubhasiz, tarjimonning mahoratidan darak. Ustoz-murabbiylar orasida ham adiblar va tarjimonlardan qolishmaydigan ijodiy salohiyatga ega pedagoglar borligining isbotidir bu.

Nabijon RAHIMOV

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-4237. Tiraj 9232. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrir qilinmaydi va muallfiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatches muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatches: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba Runi chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonada manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6